BAYRAMINGIZ BILAN, AZIZ AYOLLAR!

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda
На посту

2024-yil
7-mart
payshanba

№ 10 (4652)

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

# YUKSAK MUKOFOT MUBORAK!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risida»gi farmoniga muvofiq mamlakatimizda mo‘tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko‘rsatish, davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o‘zining samarali mehnati, boy tajribasi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida faol qatnashib, Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo‘lida tashabbus va ibrat ko‘rsatib kelayotgan, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shayotgan bir guruh xotin-qizlar davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi.

Jumladan, Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmasi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori **Imamova Yulduz Allanazarovna** hamda Jizzax viloyati Jizzax shahar Ichki ishlar boshqarmasining 2-ichki ishlar bo‘limi huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori **Rasulova Gulbaxor Obidovna** «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.

Hamkasblarimizni Vatanimizning yuksak mukofoti bilan qutlaymiz.

# AYOLLARI E’ZOZLANGAN YURT

## Buxoro shahrida ichki ishlar organlari xotin-qizlari III respublika forumi bo‘lib o‘tdi



Suratda: «Zakovat» intellektual o‘yini g‘olibi – Buxoro viloyati IIB jamoasi

2–3

FORUM

# AYOLLARI E’ZOZLANGAN YURT

**Yangi tarixiy yuksalish yo‘lida dadil odimlayotgan mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangani bu boradagi ezgu amal, xayrli ishlardan dalolatdir. Bunga javoban, o‘zbek xotin-qizlari jamiyatning barcha sohalarida qalb qo‘ri, ayollik nazokati, azmu shijoati bilan bildirilgan ishonchni oqlab kelishmoqda.**

**Qadim va navqiron Buxoroi sharifda joriy yilning 28–29-fevral kunlari «Ayollari e’zozlangan yurt» shiori ostida Ichki ishlar organlari xotin-qizlari III respublika forumi bo‘lib o‘tdi.**



Forum ishtirokchilari Buxoro shahridagi 24-sonli «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida bo‘lib, muassasa faoliyati bilan yaqindan tanishishdi.



Shundan so‘ng Buxoro tumanidagi «Varnet» issiqxona akademiyasida ichki ishlar organlarining turli sohaviy xizmatlari va hududiy IIB vakillaridan iborat 17 ta jamoa **«Zakovat»** intellektual o‘yinida aqliy salohiyatlarini sinovdan o‘tkazishdi.

Buxoro shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi viloyat Axborot kutubxona markazida o‘tkazilgan **«Eng yaxshi kitobxon xodima»** tanlovi haqiqiy kitobsevar, ma’naviyatli xodimalarni saraladi, desak, xato bo‘lmaydi.

Forumning eng murakkab va mas’uliyatli bellashuvi – **«Fidoyi ayol xodima»** ko‘rik-tanlovida ishtirokchilarning nafaqat kasbiy salohiyati, balki jismoniy va jangovar tayyorgarligi ham sinovdan o‘tkazildi. Xodimalar 1000 metr masofaga yugurish, Makarov to‘pponchasini to‘liqsiz qismlarga ajratish va yig‘ish, elektron tirda o‘q otish shartlari bo‘yicha bellashdi va test sinovlarini topshirishdi.

Forumning ikkinchi kuni Buxoro davlat universitetining tantanalar zalida tanlov g‘oliblarini taqdirlashga bag‘ishlangan tantanali tadbir



bilan boshlandi. Ichki ishlar vaziri o‘rinbosari, general-mayor Davron Nazarmuxamedov, viloyat IIB boshlig‘i, polkovnik Mirjamol Miralimov, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi «Ma’rifat» targ‘ibotchilari jamiyati a’zosi, falsafa fanlari doktori, xalqaro toifadagi spiker Jamila Shermuxamedova, Buxoro viloyati hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i Feruza Ibragimova ushbu tadbirda ishtirok etishdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar mamlakatimizda xotin-qizlarning soni jamiyatning barcha sohalarida ortib borayotgani, xususan, 2017-yilga nisbatan boshqaruv sohasida 27 foizdan 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 40 foizdan – 47 foizga, tadbirkorlikda 21 foizdan – 37 foizga yetganiga e’tibor qaratdi. Shuningdek, ushbu forumning bosh maqsadi – ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbuskorligi va faolligini oshirish, o‘zaro tajriba almashish, lider xotin-qizlarni aniqlash, xizmat intizomini mustahkamlash va gender tenglikni ta’minlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishdan iborat ekanligiga to‘xtalib o‘tishdi.

Barcha g‘olib jamoalar va sovrindorlarga qimmatbaho sovg‘alar, kitoblar to‘plami, faxriy yorliqlar tantanali ravishda topshirildi.

Forum doirasida xodimalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Ichki ishlar vazirligining ijtimoiy-maishiy komissiyasi qaroriga muvofiq avtokreditlar, ssudalar va imtiyozli uy-joy sertifikatlari topshirildi. Bundan tashqari, xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan 2 nafar xodimning turmush o‘rtog‘iga dam olish maskanlariga yo‘llanmalar berildi.

Shunday qilib, bilim, tajriba va mahorat sinovlariga boy bo‘lgan III respublika forumi xodimalarga unutilmas taassurotlar hadya etib, o‘z yakuniga yetdi.

Kelasi yil forumga Xorazm viloyati mezbonlik qiladi.

**Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,**
**o‘z muxbirimiz .**

### «Zakovat» intellektual o‘yini g‘oliblari

**1-o‘rin – Buxoro viloyati IIB jamoasi;**
**2-o‘rin – Toshkent viloyati IIBB jamoasi;**
**3-o‘rin – Namangan viloyati IIB jamoasi.**

### «Eng yaxshi kitobxon xodima»

**1-o‘rin – leytenant Sayyora Yuldasheva (Xorazm viloyati);**
**2-o‘rin – katta leytenant Mohinur Turobova (Navoiy viloyati);**
**3-o‘rin – leytenant Gulzoda Po‘latova (Buxoro viloyati), leytenant Dilrabo Ergasheva (Namangan viloyati).**

### «Fidoyi ayol xodima»

**1-o‘rin – katta leytenant Durdona Voxidova (Buxoro viloyati);**
**2-o‘rin – mayor Mavludaxon Jalolova (Farg‘ona viloyati);**
**3-o‘rin – katta leytenant Xotira Jaloldinova (Namangan viloyati).**



## TILSIM

*Ayol xatosidan kulgan*
*xatodir,*
*Tortishgan undan ham*
*ulkan xatodir.*
*Ayol hech bir bahsda*
*yengilmas tilsim,*
*Uni faqat sevib*
*qilurlar taslim.*

**Erkin VOHIDOV,**
**O'zbekiston Qahramoni.**

# HAR KALOMI – SHIFO

IIV Tibbiyot boshqarmasi Markaziy gospitali Psixoreabilitatsiya bo'linmasi tibbiy hamshirasi Ra'no Sarabekova, mana o'ttiz yildirki, tanlagan kasbini ardoqlab kelmoqda.

U Namangan shahridagi tibbiyot texnikumini imtiyozli tugatib, shahardagi tug'uruqxonalardan birida ishlab, dastlabki amaliy ko'nikmalarini oldi. 1997-yilda IIV Namangan gospitalida faoliyatini davom ettirdi. Keyinchalik Markaziy gospitalning terapiya bo'linmasida faoliyat ko'rsatdi. Hozirda esa Psixoreabilitatsiya bo'linmasining qo'li yengil tibbiy hamshirasi.

– Inson hayotda sevimli kasbi bilan baraka topar ekan. Kasbimni yaxshi ko'raman. Bo'linmamizga xastalikka chalingan ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylari kelishadi. Bilasizmi, bemorlarni birinchi navbatda shirin so'z davolaydi. Ular bilan yaxshi muomalada bo'lsangiz, kayfiyati yaxshi tomonga o'zgarib, ruhiy tushkunlikdan asar ham qolmaydi. Qarabsizki, muolajalar samara berib, kasallikdan tez orada forig' bo'ladi.

Hamshiralar shifokorlarning eng yaqin yordamchilari sanaladi. Bo'linmamizda tajribali shifokorlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular tayinlagan dorilarni o'z vaqtida bemorlarga berish va iste'mol qilishini nazorat qilish birinchi galdagi vazifamiz, – deydi Ra'no Sarabekova.

**Abu KENJAYEV,**
**o'z muxbirimiz.**



# SO'Z – G'OLIBLARGA:

**Durdona VOHIDOVA,**
**Buxoro viloyati IIB MMI va KBTX katta inspektori,**
**katta leytenant.**



– Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi Ichki ishlar vazirligi tizimida ham ko'plab xotin-qizlarimiz xalq manfaatlari yo'lida sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqdalar.

Olib borilayotgan islohotlar jarayonida xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratilishi natijasida shaxsiy tarkibda ayollar ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Asosiysi, xotin-qizlar o'z vazifalarini yuksak mas'uliyat va vatanparvarlik bilan uddalamoqdalar.

Viloyatimizda bo'lib o'tgan «Ayollari e'zozlangan yurt» shiori ostida Ichki ishlar organlari xotin-qizlari III respublika forumida **«Fidoyi ayol xodima»** ko'rik-tanlovi g'olibi bo'lish baxtiga muyassar bo'ldim. Bu ham so'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarga har qachongidan ham katta e'tibor qaratilayotganining amaldagi ifodasidir.

Bu kabi tadbirlar ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlarning intellektual salohiyati va o'z ixtisosligiga oid boshqa vazifalarni bajarishda zarur bo'ladigan sifatlarini rivojlantirish imkonini berishi shubhasiz.

**Sayyora YULDASHEVA,**
**Urganch shahar IIOFMB 1-son IIB surishtiruv guruhi surishtiruvchisi, leytenant.**



– Avvalo, ushbu forumning yuqori saviyada tashkil etilgani uchun vazirlik va Buxoro viloyati IIB rahbariyatiga o'z minnatdorligimni bildiraman. Forumda ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan eng zukko, bilimli va iqtidorli shahodatlangan xodimalar ishtirok etishdi. Hakamlar hay'atining yakuniy xulosasiga ko'ra, **«Eng yaxshi kitobxon xodima»** ko'rik-tanlovida faxrli birinchi o'rinni egalladim. Bu e'tirof meni yanada g'ayrat-shijoat bilan xizmat qilishga undaydi.

«Ayollari e'zozlangan yurt» shiori ostida o'tkazilgan ushbu forum barcha ishtirokchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

**Dilrabo ERGASHEVA,**
**Chortoq tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi surishtiruvchisi, leytenant.**

– 2023-yilda IIV Akademiyasini tamomlab, tergov yo'nalishida o'z faoliyatimni boshlagan bo'lsam, ish faoliyatimdagi ilk muvaffaqiyatim men uchun katta natija. Yana yangi marralar sari intilib, viloyatimiz sharafini himoya qilmoqchiman.

Badiiy kitoblar o'qishni kun tartibiga kiritganman. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz vakillarining, jahon klassiklarining asarlarini sevib mutolaa qilaman.

Mening otam Abdulhamid Akbarov Chortoq tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi katta tergovchisi. Ularning ma'naviy qo'llab-quvvatlashi meni katta marralar sari undaydi.

Forum bizda katta taassurotlar qoldirdi. Biz turli viloyatlardan kelgan hamkasblarimiz bilan tanishib, 2 kun davomida tajriba almashishga harakat qildik.

III respublika forumining **«Eng yaxshi kitobxon xodima»** ko'rik-tanlovida faxrli 3-o'rinni egallaganim oila a'zolarim, yaqinlarim va hamkasblarim tomonidan quvonch bilan kutib olindi. Bu yutuq meni kelgusida bundan-da yuqori natijalarga erishishga undaydi.



8 марта — Международный женский день

■ Самаркандская область

# НАРЯДУ С МУЖЧИНАМИ

**Женщин в погонах в рядах органов внутренних дел становится все больше. Но есть подразделения, где представительниц прекрасной половины немного. В УППСиООП УВД Самаркандской области, штат которого насчитывает более 300 человек, служат всего две сотрудницы – рядовая Гулрух Муродова и младший сержант Садокат Сувонова. Наряду с мужчинами они вносят свой вклад в борьбе с преступлениями.**



**На снимке:** *рядовая Гулрух Муродова (слева) и младший сержант Садокат Сувонова.*

Службу в органах младший сержант Садокат Сувонова начала в 2000 году, сразу после окончания Бухарского педагогического техникума. Любовь к спорту помогла девушке успешно пройти вступительные экзамены и сдать нормативы при приеме на работу.

Правда трудовую деятельность С. Сувонова начала в должности контролера в Бухарском следственном изоляторе. В 2022 году семья переехала в Самарканд. Сейчас Садокат в отряде патрульно-постовой службы «Эзгулик».

– Сын учится в университете, дочь заканчивает школу, в будущем они хотят стать предпринимателями как отец, – рассказывает наша собеседница. – Какой бы путь они не выбрали в жизни, для меня важно, чтобы дети нашли свое место в обществе, стали достойными людьми.

Жизненный путь рядовой Гулрух Муродовой схож с ее коллегой, о которой мы писали выше. Обе девушки не просто коллеги – они спортсменки и подруги, готовые поддержать друг друга в сложной ситуации.

Службу в органах внутренних дел Гулрух Муродова начала в 2015 году. Все свое время девушка посвящает работе и саморазвитию. Она считает, что в органах должны работать настоящие профессионалы. Это необходимо в нынешнее время, когда приходят новые информационные технологии, а значит необходимо постоянно совершенствоваться, повышать свой уровень знаний. Сейчас Гулрух готовится поступать в Самаркандский государственный университет. Девушка уверенна, что знания, талант и огромное трудолюбие позволят ей достичь блестящих результатов.

– Мы часто сталкиваемся с человеческими бедами, поэтому именно здесь, в нашей нелегкой службе, важны такие природные качества женщины, как открытость, умение понимать другого человека и сопереживать ему, – делится Гулрух. – Но именно любовь к своей профессии помогает не очерстветь душой.

**Замира БАЛТАЕВА,**
**соб. корр.**

■ Навоийская область

# С ЛЮБОВЬЮ К ВЫБРАННОЙ ПРОФЕССИИ



**Подполковник Сайёра Саидрахмонова более четверти века в органах внутренних дел. О своем выборе ни разу не жалела, хотя были трудности, периоды, когда приходилось разрываться между службой и семьей.**

За это время прикипела к своей профессии, служебный кабинет стал вторым домом, а специфика работы требовала не считаться со временем. Да и коллеги давно стали друзьями, теми, с кем делила радость и невзгоды.

С детства Сайёра росла любимицей отца. Поэтому домашние поддержали девушку в выборе пути, ибо в семье уже имелись представители славной профессии. Тихая и послушная в быту она становилась серьезной и настойчивой в вопросах, касающихся службы. Именно эти качества позволили в 2000 году успешно окончить Академию МВД. В настоящее время подполковник Саидрахмонова является старшим экспертом экспертно-криминалистической группы ОВД НГМК УВД Навоийской области.

– Благодаря профессии обрела себя, нашла призвание, уважение коллег, – говорит Сайёра. – Большой опыт криминалиста в сфере экспертизы позволил мне раскрыть немало преступлений. С удовольствием передаю свои знания и навыки молодым специалистам, помогаю советами.

Сайёра вникает в каждую деталь, сопоставляет, анализирует полученные данные, устанавливает факты, находит улики. При этом не забывает, что за каждым случаем лежит судьба конкретного человека и от ее опыта и мастерства зависит чья-то жизнь.

**Махлиё ХОЛОВА,**
**соб. корр.**

PATRUL SHAHAR KEZADI

# HAR LAHZA YORDAMGA SHAYMIZ

## – deydi mayor Feruz Xayriyev

**Deyarli har kuni ko‘cha-ko‘yda, jamoat joylarida ushbu soha vakillariga duch kelishingiz aniq. Ular aholi oromini asrash uchun tunlarni tonglarga ulab xizmat qilishadi. Ayniqsa, bayram kunlari Buxoro viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimlarining mas’uliyati yanada ortadi.**

– Shu yilning hozirgi kunigacha xodimlar tomonidan 10 tadan ortiq jinoyat fosh etildi, – deydi batalyon komandiri o‘rinbosari, mayor Feruz Xayriyev. – Buxoro shahar hududidagi tungi ko‘ngilochar klublarda, umumiy ovqatlanish joylarida hamda diqqatga sazovor maskanlarda fuqarolar tomonidan mast holatda o‘zaro janjalashish, bir-birlariga turli darajadagi tan jarohatlari yetkazish va bezorilik kabi 20 taga yaqin jinoyat sodir etilishining barvaqt oldi olindi. Bundan tashqari, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan 1 nafar shaxs ushlandi.




Buxoro shahrida o‘tkazilgan «Tig‘» profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari davomida 67 nafar fuqaroning o‘zi bilan pichoq, kastet, bita yoki boshqa o‘tkir tig‘li jismlar olib yurganligi aniqlandi. Ularning 43 nafariga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Spirtli ichimlikni miqdoridan ko‘p iste’mol qilganligi oqibatida jamoat tartibini buzgan 560 nafar shaxsning 392 nafari viloyat Narkologiya dispanseriga yotqizilgan.

Shuningdek, shaharning asosiy ko‘chalari, chorrahalar, bozorlar hamda diqqatga sazovor joylarida tilamchilik bilan shug‘ullangan shaxslarga nisbatan qonunda ko‘zda tutilgan javobgarlik masalasini hal qilish uchun hujjatlar rasmiylashtirilib, hududiy IIBlarga yuborilishi ta’minlandi. Qolaversa, 11 nafar shaxs teri-tanosil dispanseriga, 48 nafar shaxs aniq yashash joyiga ega bo‘lmaganligi sababli reabilitatsiya etish markaziga va 47 nafar voyaga yetmagan shaxs voyaga yetmaganlar markaziga joylashtirildi.

Shu yilning 7-fevral kuni avtopatrullik xizmatiga jalb qilingan xodimlar – 3-otryad safdor xodimi, safdor M. Hasanov va 2-otryad haydovchi xodimi, safdor T. Rahmonovlar xizmat olib borishayotganda, ko‘chaning qorong‘i joyida turgan avtomashinadan shubhalanib, haydovchi va transport vositasini tekshirishadi. Buni qarangki, haydovchi N. N. Jinoyat kodeksining 184-moddasi 3-qismida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir qilganligi uchun Buxoro shahar prokuraturasi tomonidan 2024-yil 20-yanvardan qidiruvdaligini aniqlashadi. So‘ng u Buxoro shahar IIBga olib kelinadi.

PPX batalyonining hushyor xodimlari faoliyatidan bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Shuningdek, ular hududiy profilaktika inspektorlari, jinoyat qidiruv, tergov xodimlari, YPX inspektorlari, ekspert-kriminalistlar bilan baqamti ishlashmoqda. Turli sohaviy xizmatlarning bunday o‘zaro hamkorligi huquqbuzarliklarning oldini olishda, jinoyatlarni tezkorlik bilan ochishda o‘z samarasini bermoqda.




**Mirzoqul AHADOV,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Buxoro viloyati.*

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR



# «BOSDI-BOSDI» QILMOQCHI EDI...

**Xivalik Rustam (ism-shariflar o‘zgartirildi) muqaddam sudlangan. Ammo qilmishidan to‘g‘ri xulosa chiqarmasdan, giyohvandlik moddalari oldi-sotdisi bilan yana shug‘ullana boshladi. Bundan xabar topgan ichki ishlar organlari xodimlari uni kuzatuvga olishdi.**

Xiva shahar IIB xodimlari tomonidan o‘tkazilgan tezkor tadbirda gumonlanuvchi shahar hududida to‘xtatilib, uning yoni xolislar ishtirokida ko‘zdan kechirildi. Natijada cho‘ntagidan gugurt qutilariga joylangan geroin va opiy giyohvandlik vositalari chiqdi.

Surishtiruvlar davomida Rustam bu giyohvandlik moddalarini tanishi X.Muroddan sotib olganini bildirdi. Shu kuni tezkor tadbir davom ettirilib, navbatdagi gumonlanuvchi ham qo‘lga olindi. Uning yoni va avtomashinasi ko‘zdan kechirilganida esa, haydovchi o‘rindig‘i ostida bir bo‘lak geroin giyohvandlik vositasi borligi aniqlandi.

Qilmishi fosh bo‘lganidan sarosimaga tushgan Murod mazkur holatni «bosdi-bosdi» qilish maqsadida Xiva shahar IIB katta tezkor vakili, kapitan Muhammad Ibragimovga 2000 AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi. Tezkor xodim esa unga bu jinoyat ekanini bir necha bor tushuntirishga urinadi, biroq...

Tezkor tadbirda X.Murod xodimga taklif etgan pulning bir qismini, ya’ni 1000 AQSH dollarini pora tariqasida bergan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olindi.

O‘zining noqonuniy qilmishini pora berish evaziga yashirmoqchi bo‘lgan X.Murodga nisbatan qo‘shimcha jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

**Xudoybergan JABBOROV,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Xorazm viloyati.*

## 8 марта — Международный женский день

Андижанская область

# НА ПУТИ ПРОСВЕЩЕНИЯ

**Кроме женщин – военнослужащих, представительницы прекрасной половины работают в войсковых частях по вольному найму. Перечень должностей довольно широк. Самые распространенные направления – медицина, связь, делопроизводство, продовольственное и вещевое хозяйства, библиотека, архив. Должности нужные, правда, не всегда заметные...**

После окончания Бозского педагогического техникума Санобархон устроилась работать библиотекарем в районную библиотеку. Потом была заведующей библиотекой в Шахриханском и Мархаматском районах. Далее работала заведующей библиотекой в одной из войсковых частей в Андижане. С 2020 года Санобархон Сулаймонова является начальником культурного центра, советником командира войсковой части № 7553 Караульных войск МВД по культурно-просветительской работе.

– Многие военнослужащие прибыли служить в Андижан из разных областей Узбекистана, – рассказывает Санобархон. – В целях ознакомления их с историческими достопримечательностями Андижанской области организовываются экскурсии в областной музей истории, боевой славы УВД, Бабура, по памятным местам поэта Мухаммада Юсуфа.

Проводятся встречи личного состава с учащимися школ, лицеев и высших учебных заведений, в ходе которых военнослужащие рассказывают о буднях службы, учениях.

В последние годы значительно изменились содержание и формы культурно-просветительной работы, организационно-технические возможности. В современных условиях сотрудники располагают большим арсеналом средств эмоционального воздействия, разнообразными формами и методами проведения массовых



просветительских, воспитательных и развлекательных мероприятий, широко используют самодеятельное художественное творчество. Вся система форм, средств и методов культурно-просветительной работы позволяет формировать у военнослужащих высокие морально-психологические качества защитника Отечества, выявлять, формировать и развивать их интересы, общественное мнение, коллективные чувства и настроения, удовлетворять потребности в культурном общении, мобилизовать воинов на решение задач поддержания боевой готовности, боевой и общественно-государственной подготовки, укрепления воинской дисциплины.

В войсковой части проводятся торжественные мероприятия, посвященные государственным праздникам, отмечаются дни рождения военнослужащих, устраиваются семейные спортивные мероприятия «Папа, мама, я – спортивная семья».

От всей души хочется поздравить всех женщин с праздником, пожелать им семейного благополучия, здоровья, счастья и удачи!

**Борис КЛЕЙМАН,**
**соб. корр.**

Республика Каракалпакстан



**Недавно в сельском сходе граждан «Кок сув» Бозатауского района, закрепленном за третьим сектором, была организована очередная встреча с молодежью. В беседе, прошедшей в открытой форме, руководитель сектора полковник У. Курбанбаева выслушала проблемы и запросы представителей молодого поколения.**

В основном они касались трудоустройства, улучшения инфраструктуры, банковских кредитов на развитие бизнеса. В ходе встречи для обеспечения самозанятости трем молодым людям предоставлены сварочные аппараты, семи жительницам выделены швейные машинки, трем членам малообеспеченных семей оказана помощь в получении паспортов.



– Работаю строителем. За это время освоил сварочное дело, так как спрос на специалистов этой профессии стабильный. Но для начала собственного дела не мог приобрести необходимое оборудование. На встрече мою просьбу удовлетворили – обзавелся агрегатом, – говорит Ислам Керимбаев.

Алима Тагаева – одна из тех, кому выделили швейную машинку.

– В здании общеобразовательной школы № 13 действует моноцентр. Здесь я обучилась на курсах швейному делу. Теперь получила машинку, – говорит женщина. – Рада, что могу самостоятельно зарабатывать на жизнь.

Особое внимание уделяется поддержке тех, кто состоит в «железной тетради» и «женской тетради». Кроме того, на основе обращений граждан выполнены строительно-ремонтные работы на внутренних дорогах, протяженностью 4,5 километра. Также проложено 2,2 километра водопроводных труб.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**
**соб. корр.**

***На снимке:*** *полковник Умида Курбанбаева выступает перед собравшимися.*

# BO‘LINMA MALIKASI

**Ichki ishlar vazirligi Tibbiyot boshqarmasining Markaziy poliklinikasi moliya va moddiy texnika ta’minoti bo‘limi buxgalteri, serjant Nodiraxon Xodjayevani hamkasblari birday hurmat qilishadi. Sababi, u salkam chorak asrdan buyon shu jamoa bilan bir safda. 1997-yil ushbu poliklinikada kotiba bo‘lib ish boshlagan, 1999-yilda Toshkent politexnika texnikumining buxgalteriya yo‘nalishini sirtdan o‘qib tugatgan. Sohasida tajriba va ko‘nikmaga ega serjantni poliklinika moliyachilar jamoasi ustoz deya e’zozlashadi.**

– Dori-darmonlarning kirim-chiqimi, moddiy tovarlarning hisob-kitobini yuritish asosiy vazifamizga kiradi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ishimizda bitta nol raqami ham katta ahamiyatga ega. To‘g‘rirog‘i, hisob-kitobli ish bu – mas’uliyat degani. Ammo kasbimni yaxshi ko‘raman. Mana shu xizmatim tufayli do‘st-yor orttirdim, har kuni bir-biriga mehr-oqibatli insonlar jam bo‘lgan jamoamga, sharafli xizmatimga oshiqaman. Oilaviy hayotda ham baxtli to‘kis ayolman. Turmush o‘rtog‘im Islombek aka bilan Elyorbek, Nazokat, Akbarbeklarni voyaga yetkazmoqdamiz. Kelajakda ular ham el-u yurtimizga naf keltiradigan insonlar bo‘lishini xohlayman.

**Abu KENJAYEV,**
**o‘z muxbirimiz.**



SULOLA

# MATONATLI AYOL, JONKUYAR RAIS

**O‘zbek xalqi tarixida o‘zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o‘chmas iz qoldirgan To‘maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebunniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin kabi ayollar yashab o‘tganki, bugungi avlod ular bilan haqli ravishda faxrlanadi. Ulug‘ momolarimizga xos olijanob fazilatlar hozirgi kunda ham zamondosh ayollarimiz siymosida davom etib kelmoqda.**

Farg‘ona tumanidagi «Avval» qishlog‘ida istiqomat qiluvchi ichki ishlar organlari faxriysi, iste’fodagi mayor Dilobar Ismatova ham bugungi kunning oqila, shijoatli va faol ayollaridan biri.



U 1977-yildan 2004-yilga qadar tizimdagi turli vazifalarda, xususan, tergov sohasida samarali xizmat qilib, ehtirom bilan pensiyaga chiqqan.

– Onam rahmatli Muhtarama Hotamova 24 yil davomida Farg‘ona viloyati IIB Tergov boshqarmasida ishlab, yuzlab shogirdlarga ustozlik qilgan, podpolkovnik unvoni bilan pensiyaga chiqqan, – deydi iste’fodagi mayor Dilobar Ismatova. – Men ham onamning kasbiga mehr qo‘yib, shu sohani tanladim. Onam juda tajribali tergovchi edi. U kishi menga ham onalik, ham ustozlik qildi. Tergov sir-asrorlari bilan birga, halollikni, odamgarchilikni, kamtarlikni o‘rgatdi. Faoliyatim davomida qanday yutuqlarga erishgan bo‘lsam, barchasiga onamning bergan tarbiyasi va o‘gitlari sabab, deb bilaman.

– Turmush o‘rtog‘im mayor Bahodirjon Mirahmedov bilan birgalikda 7 nafar farzandni munosib insonlar qilib tarbiyaladik, – deya turmush o‘rtog‘ini xotirlaydi Dilobar opa. – Umri qisqa ekan, 55 yoshida olamdan o‘tdi. Farzandlarimning barchasi oliy ma’lumotli, bugun hayotda o‘z o‘rinlarini topishgan. Ikki nafar qizimiz – Bekzoda va Koinotxon kasbimizni davom ettirdi. Bekzoda ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib pensiyaga chiqqan bo‘lsa, Koinotxon hozirda viloyat IIB HPBda xizmat qilmoqda. Yana bir qizim favqulodda vaziyatlar boshqarmasida, yana biri mahalla tizimida, kenjasi esa soliq sohasida xizmat qiladi. Yakka-yu yagona o‘g‘limiz Zabardast Mirsoliyev adliya tizimida mehnat qilmoqda.

Ana shunday sulola vakili sanalgan Dilobar Ismatova pensiyaga chiqqanidan so‘ng ham el-yurt xizmatidan to‘xtagani yo‘q. Farg‘ona shahridagi Alisher Navoiy nomli mahalla raisi bo‘lib ishladi, Farg‘ona yuridik texnikumida yoshlarga huquqshunoslik fanidan saboq berdi.

2022-yil mahalla fuqarolar yig‘ini raisi lavozimiga saylovlar o‘tkazish jarayonida uni o‘zi yashaydigan Farg‘ona tumani Avval qishlog‘idagi «Mozortagi» mahallasi raisligiga nomzod qilib ko‘rsatishdi. Aholi beshta nomzod ichidan unga ishonch bildirib, bir ovozdan rais etib saylashdi.

Qahramonimiz raislik qilayotgan «Mozortagi» mahallasi turizm hududi sanaladi. Boisi, Farg‘ona tumani adirliklarida joylashgan ushbu mahalla o‘zining so‘lim tabiati, musaffo havosi, zilol suvlari bilan mashhur. Hududda o‘nlab dam olish maskanlari, dala hovlilar, sanatoriylar, 10 ga yaqin uy mehmonxonalari joylashgan. Yozning jaziramasida bu qishloqqa dam olgani keluvchi mahalliy va xorijlik sayyohlarning sanog‘iga yetolmaysiz. Shu sababli, keyingi yillarda mahalla yanada obod bo‘ldi. Eng e’tiborlisi, Dilobar Ismatova rais bo‘lib ishlagan yillari bunday xayrli ishlar keng quloch yoydi. Mahallada asfalt qilinmagan ko‘chalar qolmadi.

Lavhamiz qahramoni haqida gap ketganida, juda ko‘plab maqtov va yaxshi ta’riflarni ishlatish mumkin. Zero, tajribali huquqshunos, o‘nlab tergovchilarning ustozi, mo‘tabar ona, 67 yoshida ham xalq xizmatidan tolmagan mahallaning jonkuyar raisi Dilobar Ismatova kabi ayollar jamiyatimiz gultojidir.

**Abduvosit SIDIQOV,**
**o‘z muxbirimiz.**

*Farg‘ona viloyati.*



## O‘zbekning ayollari

**Uxlamaydi tunlari,**
**Oy nurlari taralgan.**
**O‘zbekning ayollari**
**Farzand uchun yaralgan.**

**Yildan uzun kunlari,**
**Kim ko‘nglini so‘rolgan.**
**O‘zbekning ayollari**
**Mehnat uchun yaralgan.**

**Qirq, yil qirgin bo‘lsa ham**
**O‘z ahdida turolgan.**
**O‘zbekning ayollari**
**Toqat uchun yaralgan.**

**Yot oldidan sal nari**
**Qachon kokil o‘rolgan.**
**O‘zbekning ayollari**
**Iffat uchun yaralgan...**

**O‘zbekning ayollari,**
**O‘zbekning xotinlari,**
**Suvdan halol,**
**Guldan pok,**
**Qo‘llari oltinlari,**
**Qay tomonga bursa yuz,**
**Yo‘llari oltinlari —**
**Izzat uchun yaralgan!**

**Muhammad YUSUF,**
**O‘zbekiston xalq shoiri.**

AYOL VA JAMIYAT

# Xayrli amallar bilan hamohang

**«Zo‘ravonlikka – yo‘l yo‘q!» loyihasi doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlar davomida poytaxtimizda joylashgan Reabilitatsiya moslashtirish markazida saqlanayotgan ko‘pgina ayollar hayotida o‘zgarishlar qilinmoqda. Buni Toshkent shahar IIBB HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektor, podpolkovnik Nafisa Do‘smuxamedovaning hamkor tashkilotlar va hamkasblari bilan amalga oshirayotgan ishlari misolida ko‘rishimiz mumkin.**




Yaqinda Shayxontohur tumani «Gulobod» mahallasida yashovchi Sh.Yu. ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari bilan qiynalayotganligini, turmush o‘rtog‘i hamda qaynonasi tomonidan tazyiqqa uchrayotganligini ma’lum qilgan. Shundan so‘ng markazda mahalla raisi, faollar, imom xatib, otinoyi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli ishtirokida Sh.Yu.ning turmush o‘rtog‘iga qonun oldidagi huquq va majburiyatlari tushuntirildi hamda yarashtirish choralari ko‘rildi. Hozirda ular totuvlikda umrguzaronlik qilmoqda.

Podpolkovnik Nafisa Do‘smuxamedova hamkasblari bilan shahar miqyosida xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish va ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni kamaytirish, ishsizlarning bandligini ta’minlash, zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj bo‘lganlariga himoya orderlari rasmiylashtirish, qo‘yingki, ayollar bilan bog‘liq har qanday muammoni hal etish choralarini ko‘rmoqda.

N. Do‘smuxamedova Samarqand viloyatida tavallud topgan. IIV Akademiyasini tugatganidan so‘ng, ichki ishlar organlaridagi faoliyatini Olmazor tumani IIB XCHK va FRBda boshlagan. Unga soha sir-asrorlarini mayor Dilfuza Oxunova o‘rgatgan. Keyinchalik esa Yunusobod tumani IIB voyaga yetmganlar bo‘yicha inspektor lavozimi faoliyatini davom ettirib, 2015-yildan buyon hozirgi lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Lavhamiz qahramonining umr yo‘ldoshi Bahodir Do‘smuxamedov tadbirkor. Ular Maqsudbek va Behruz ismli farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazishmoqda. Maqsudbek Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida tahsil olyapti. U IIV tomonidan berilgan tavsiyanoma orqali ushbu oliygohga imtiyozli ravishda o‘qishga kirgan. Ikkinchi o‘g‘li Behruz hozirda umumiy o‘rta ta’lim maktabining 11-sinfida o‘qiyapti. U onasining izidan ketishga ahd qilgan. Kelgusida ichki ishlar organi xodimi bo‘lmoqchi.

Podpolkovnik Nafisa Do‘smuxamedovaning ukasi Rustam Qurbonov ham opasining kasbiga havas qilib, shu sohada ishlashni maqsad qildi. U Toshkent shahar IIBB JQB katta tezkor vakili, podpolkovnik.

Ukasiga yo‘lchi yulduz bo‘lgan, turmush o‘rtog‘i bilan totuvlikda hayot kechirib, farzandlarini munosib tarbiyalayotgan qahramonimizning jamiyatda ham o‘z o‘rni bor. Chunki u o‘z faoliyatini xotin-qizlar dard-u tashvishi va muammolarini hal etishdek ezgu amallar bilan bog‘lagan.

**Sarvar SOBIROV,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Toshkent shahri.*

---

# AJRIMLAR O‘RNIDA YARASHISHLAR



**Xovos tumanining «Paxtakor» mahallasida yashovchi N. K.lar oilasi yetti kishidan iborat. Tashqaridan qaraganda bu oila tinch-totuv, o‘ziga to‘q. Erning daromadi yaxshi. Lekin turmushning barcha tashvishi ayolning gardaniga tushib qolgan. Xonadonda o‘ndan ortiq ho‘kiz boqiladi. Ularga qarash endigina o‘ttiz bir yoshni qarshilagan ayolning zimmasida. Buning ustiga, har yakshanba kuni bozorga kartoshka, sabzi, piyoz olib chiqib, savdo qiladi. Er davlat ishidan ortmaydi. Ishdan so‘ng og‘aynilari bilan biror joyda oshxo‘rlik qiladi. Uy-ro‘zg‘or, farzandlar tarbiyasi bilan ishi yo‘q. Oxiri ayolning sabr kosasi to‘ldi. Xotinining e’tiroziga javoban, «maoshimni beryapman-ku, qolgani bilan ishim yo‘q» deya qo‘rslik qildi. Oilada to‘rt qiz, bir o‘g‘il ulg‘ayib kelayotgani bilan ishi yo‘q. Natijada oilaga darz ketdi. Nizo kuchaydi, janjal boshlandi. Nomard er zo‘ravonlik yo‘liga o‘tdi. Ish ichki ishlar organlari xodimlariga yetib keldi.**

Xovos tumani IIB XQMB katta inspektori, leytenant Mahliyo Hamroyeva vaziyatni sinchkovlik bilan o‘rgandi. Oilaning o‘ziga to‘q bo‘lgani hammasi joyida, degani emas ekan. Erkak bilan bo‘lgan profilaktik suhbat darrov samara bermadi. Chunki erlik g‘ururi bunga yo‘l qo‘ymasdi. Leytenant uni mahalla idorasiga chaqirdi. Psixolog, mahalla raisi, adliya bo‘limi xodimlari bilan birga xotinining huquqlarini tushuntirishdi. Ayolini og‘ir mehnatga qo‘yib, yallo qilib yurishi oriyatli erkakning ishi emasligi aytilganida, er tutaqib ketdi. Shaxsiy hayotining daxlsizligini aytib, mas’ullarning talabini inkor eta boshladi. Qonuniy chora qo‘llashga to‘g‘ri keldi. Ayolga himoya orderi berildi.

Oiladagi to‘kin-sochinlikning asosiy sababchisi bo‘lgan ayolning huquqlari shu tariqa tiklana boshladi. Er sekin-asta oila ishlariga qarasha boshladi. Ikki oylar o‘tib, vaziyat o‘nglandi. Ayolning zahmati kamaydi. Fayz-baraka yanada ko‘paydi.

Tumandagi barcha mahallalarda shu kabi holatlarga duch kelavergach, leytenant Mahliyo Hamroyeva gender tengligini ta’minlashga oid o‘ziga xos chora-tadbirlar ishlab chiqishni taklif qildi. Xovos tumani hokimligi, mahalla xotin-qizlar faollari bilan hamkorlikda sport, ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy tadbirlar rejasi tuzildi. Har bir mahallada shu yo‘nalishdagi tadbirlar yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bir umr ro‘zg‘or tashvishidan ortmagan ayollarning Samarqand, Toshkent kabi shaharlarga sayohati uyushtirildi. Ular o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazilishi muntazam tusga kirdi. Bularni tashkil etish oson emas. Hamma gap moliyaviy jihatga borib taqalardi. Izlagan imkon topar ekan. Tumanda yaxshilik qiluvchi saxovatpeshalar topildi. Mahallalarda yirik ma’naviy-ma’rifiy dasturlar uyushtirila boshlandi. Huquqshunos, psixologlar ishtirokida seminarlar tashkil etildi. Ikki yilcha o‘tgach, tumanda xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilik ko‘lami kamaydi. Oilaviy nizolar soni yigirma foizga qisqardi. Ajrimlar o‘rnini yarashishlar egalladi. Bu esa shunday tadbirlarni uyushtirayotgan mas’ullarga yanada kuch berdi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Sirdaryo viloyati.*

XIZMATLARDA

# MA'MURIY JAVOBGARLIK BOR

**Navoiy shahar IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limida 5 nafar xodim faoliyat ko'rsatadi. Avvallari bo'limga zarurat yuzasidan kelgan fuqarolar soatlab navbat kutishar, talab etiladigan hujjatlar ko'pligi ularda haqli e'tirozlarga sabab bo'lardi. Endi esa fuqarolar elektron navbat orqali qabul qilinadi. Kutish zalida o'rnatilgan monitorda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasiga oid tartib-qoidalar video-slayd ko'rinishida, hammaga tushunarli tarzda namoyish etiladi.**





Joiry yilning dastlabki ikki oyi davomida Navoiy shahrida 16 yoshga to'lganligi munosabati bilan 988 nafar maktab o'quvchisiga ID-kartalari tantanali ravishda topshirildi. Shuningdek, 2816 nafar fuqaro doimiy, 748 nafari esa vaqtincha yashash joylari bo'yicha ro'yxatga olindi. Bundan tashqari, 5 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxsga fuqarolik rasmiylashtirildi.

– Oramizda fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'layotganlar ham uchrab turibdi. Shu o'rinda hamyurtlarimizga ushbu hujjatdan foydalanish tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik borligini eslatib o'tmoqchiman, – deydi Navoiy shahar IIB M va FRB boshlig'i, mayor Sulaymon Niyozov.

Bo'lim xodimlari reja bo'yicha joylarda tekshiruvlar o'tkazishadi, profilaktik ishlar olib borishadi. Bu esa pasport-viza rejimini ta'minlashda, aholining osoyishtaligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

**Mahliyo XOLOVA,**
**o'z muxbirimiz.**

*Navoiy viloyati.*



KITOBXON XODIMA




# MUVAFFAQIYATLARIM – KITOBGA MUHABBATDAN

## – deydi leytenant Pokiza Xoliqulova

Yaqinda o'tkazilgan kitobsevarlar tanlovida 22 yoshli leytenant Pokiza Xoliqulova barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu uning ilk g'alabasi emas. U bugunga qadar «Zakovat» intellektual o'yinida ham iqtidorini namoyon etib, bilimdon, zukko va istiqbolli kadr sifatida o'zini ko'rsata olgan.

Pokiza ichki ishlar organlaridagi xizmatini 2023-yilda Samarqand shahri bo'yicha IIOFMB 3-sonli IIB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor lavozimidan boshlagan. Dekabr oyida esa uni Samarqand davlat universitetiga inspektor etib tayinlashdi.

Leytenantning kundalik xizmat faoliyati SamDUning 11 mingdan ziyod talaba qizlari bilan kechadi.

– Faoliyatim davomida yotoqxonada istiqomat qiluvchi talabalarga alohida e'tibor qarataman, – deydi suhbatdoshimiz. – Bu toifaga kiruvchilar bizning yordamimizga ko'proq muhtoj bo'lishini yaxshi bilaman. Umuman olganda, har qanday qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topishda ularga yordam berishga harakat qilaman. Muvaffaqqiyatga erishganlarida ko'plashib xursand bo'lamiz. Hayotiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan jiddiy xatolardan saqlab qolishga erishsak, quvonchimiz ichimizga sig'maydi. Vaziyatlar har xil bo'lishi mumkin, lekin yechim har doim topiladi.

Lavhamiz qahramonining turmush o'rtog'i leytenant Saydali Xurramov 38-manzil koloniyada xizmat qiladi. Ular IIV Akademiyasida o'qib yurgan kezlari tanishib, oila qurishgan. Yosh oila boshlig'i rafiqasining kasbiga hurmat bilan qaraydi, uni doim qo'llab-quvvatlaydi.

– Oila men uchun juda qadrli, – deydi P. Xoliqulova. – Oilani o'zaro ishonch, tushunish, bir-biriga g'amxo'rlik va birgalikdagi harakatlar ushlab turadi. Nima bo'lishidan qat'i nazar, har doim oila bizga qanot bo'ladi, unga hamisha ishonch bilan suyanish mumkin.

Qahramonimiz ko'rik-tanlovlarda erishgan g'alabalari haqida gapirarkan, bo'sh vaqtlarini kitob mutolaasiga bag'ishlashini qayd etdi. Hozirda yosh oilaning xonadonida kichik kutubxona mavjud bo'lib, Pokiza kitoblarni ehtiyotkorlik bilan saqlaydi va vaqti-vaqti bilan yangi adabiyotlar bilan boyitib turadi.

– Muvaffaqiyatlarim – kitobga bo'lgan muhabbatimdan, – deydi kitobxon xodima – Men uchun kitob o'qish nafaqat yoqimli mashg'ulot, balki shaxs takomillashuviga xizmat qiluvchi muhim jihatdir. Kitoblar dunyoqarashimizni kengaytirishga, olam va odamlar haqida yangi narsalarni o'rganishga, tafakkur va tasavvurni boyitishga yordam beradi. Shuningdek, kitob o'qish o'zimizni va his-tuyg'ularimizni yaxshiroq anglashga ko'maklashib, insonning o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.

**Zamira BOLTAYEVA,**
**o'z muxbirimiz.**

*Samarqand viloyati.*

ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

# СЎРОҚҚА ЧАҚИРИЛГАН ДУРАДГОР

### ҚЎЛИ ГУЛ УСТА

...Ички ишлар вазирлиги ҳовлисида қўлида болға, арра кўтарган киши вазмин қадам ташлаб борар, гоҳ-гоҳ қўли билан пешонасидаги терни артарди. Ҳаракатлари тетик, ўзи бардам, нигоҳи ўткир бу кишини кўрган барча ходимлар илиқ сўрашишади. Шу тобда майор унвонидаги ходим унга рўбарў келди.

– Эркин ака, роса сизни қидирдим, хизмат хонамнинг эшиги очилмаяпти, илтимос, очиб беринг, ҳисоботни топширишим керак...

Асбоб-ускунасини олиб эшикни очишга киришиб кетган Эркин ака, ишини якунлаб, майорга юзланди:

– Мана, эшигингиз очилди, бундан кейин қулфига эҳтиёт бўлинг, – дея жилмайди...

Эллик йилдан зиёд вақт давомида ИИВда уста дурадгор бўлиб ишлаган Эркин Муродбековни кўпчилик яхши хотиралар билан эслашади.

Эркин Муродбеков 1930 йил 27 декабрь куни Тошкентдаги Кўмирчи маҳалласида ишчи оиласида дунёга келган. Отаси Қодирбек ака ва онаси Тўхтахон ая 7 нафар фарзандни вояга етказишди. Шўролар давридаги «қулоқлаштириш» қатағон сиёсати Қодирхон ака ҳаётига чанг солди. У Сибирга сургун қилинади.

Иккинчи жаҳон уруши бошланганида Россиянинг саноат шаҳарларидаги корхоналар Тошкентга кўчирилади. Турмуш қийинчиликлари сабаб Эркин ҳам 1944 йилдан самолётсозлик заводида ишлай бошлайди. Оиласини боқиш мақсадида кечани кеча, кундузни кундуз демай, меҳнат қилди. Эркин бу корхонада армия сафига чақирилгунга қадар ишлади.

Ҳарбий хизматдан сўнг қоғоз комбинатига ишга кирди. 1953–1962 йилларда яна турли завод ва фабрикаларда дурадгор-уста бўлиб ишлади. Ва ниҳоят 1962 йил 25 октябрдан умрининг охиригача вазирликда дурадгор лавозимида ишлади.

### ХИЖОЛАТ

... Ёзнинг жазирама иссиқ кунларидан бири. Эркин ака бузилган мебелларни тузатиб бўлгач, ҳар доимгидек устахонада ўрнатилган мўъжазгина плитада овқатга уннади. Стулини таъмирлатишга келган катта лейтенант уни кузатаркан:

– Эркин ака, қойил овқат қилишга ҳам устамисиз дейман. Шунча мебелларни таъмирлашга қандай улгурасиз.

– Инсон ўз касбини севиб, меҳр билан астойдил меҳнат қилса, ҳамма нарсага улгурса бўлади, ҳар қандай машаққатни енгса бўлади. Бунинг учун аввало кунт, сабр даркор, болам.

– Эй болам, Абдураҳмон Жомий мана бу гапни бежиз айтмаган:

*Мансаб билан*
*баландмас одам,*
*Мансаб одам*
*билан муҳтарам.*

Катта лейтенант берган саволидан уялиб, бироз хижолат тортди. Эркин акага ҳатто раҳмат айтишни ҳам насия қилган ёш ходим соз



ҳолатга келган стулини олганча хонадан чиқиб кетди...

### «ДАХЛДОР»

Саксонинчи йилнинг ўрталарида «Пахта иши», «Ўзбек иши», «байроғи» остида Гдлян ва Иванов бошлиқ Москвадан келган терговчилар не-не ҳалол, пок, меҳнаткаш инсонларни бадном қилиб, оиласини чирқиратди. Энг қизиғи, 1984 йилда бирор бир курсида ўтириб мансабдор бўлмаган, оддий, камтар инсон



– дурадгор Эркин Муродбеков ҳам «Ўзбек иши»га «дахлдор» сифатида Москвага сўроққа чақиртирилган.

– Янглишмасам 1984 йилнинг кеч куз ойлари эди, – дейди Эркин аканинг ўғли Шавкатбек Муродбеков. – Отамни Москвага терговга олиб кетишди. Бошида биз ҳайрон бўлдик, отамиз мансабдор шахс бўлмаса, бировдан бир сўм олмаган оддий уста бўлса. Кейин Отам бориб келганларидан сўнг нима бўлганини айтиб бердилар. Москвага борган куниёқ, терговчи уни Ҳайдар Яҳёевнинг «иши» бўйича сўроқ қилган. Уларнинг мақсади отамни ёлғон гувоҳлик беришга ундаш бўлган. Вазирга келаётган ёки кетаётган «посилка»лардан хабари бор ёки йўқлигини, шунингдек, Ҳ. Яхёевнинг уйида мебел ясаб берганлигини сўрашган экан.



Отам бошида уни сўроқ қилган шахсан Гдляннинг ўзи эканлигидан бехабар бўлган. Судда отам мазкур ишга ҳеч қандай алоқаси йўқлигини, вазирнинг яхши инсон ва яхши раҳбар эканлигини айтганида, қора курсида ўтирган Ҳ.Яхёев кўзига ёш олган экан.

### ЛИФТ УЧУН 7 ОЙНА

Москва. Терговчи Эркин акага бир қоғоз узатиб:

– Танишиб чиқинг ва қўл қўйинг, – деди буйруқ оҳангида.

– Бу нима, – деди Эркин ака ҳайрон бўлиб.

– Нима, рус тилига тушунмайсизми, десак унамадингиз, ўқинг, танишиб чиқинг, деб стулига ўтирди терговчи.

Эркин ака қоғоздаги ёзувларни ўқиб чиқди, бироқ тушунмагандек яна қайта ўқиб чиқди ва секин оҳангда:

– Ўртоқ терговчи, мен бунга қўл қўя олмайман. Кечирасиз-у, оддий уста бўлсам-да, саводим бор. Бу ерда нотўғри маълумот келтирилган. ИИВ биносининг лифтига 7 та ойна қўйилган, деб қайд этилган, бироқ лифт битта бўлса, қанақа қилиб 7 та ойна қўйилади.

– Тўғри вазирлик биноси 7 қаватли..., – деган Эркин аканинг гапини терговчи бирданига бўлди.

Жаҳли чиққанидан хонанинг у томонидан бу томонига бориб келаётган терговчи Эркин акага кўзларини катта-катта қилиб:

– 7 та ойна қўйилган-ку, – деб қўлини столга зарб билан урди.

– Кечирасиз, мен уста-дурадгорман, – мен ўзим қилган ишга жавоб бераман...

### ЯХШИДАН БОҒ

Эркин ака умр йўлдоши Маъмура ая билан етти нафар фарзандни тарбиялаб, вояга етказди. Беш ўғил, икки қиз ҳаётда ўз ўрнини топиб, уйли-жойли бўлишди. Катта ўғли Баҳромбек Муродбеков қарийб чорак аср давомида Тошкент шаҳар ички ишлар органларида самарали хизмат қилиб, капитан унвонида пенсияга чиқди. Бугун унинг ўғли сержант Асқар Муродбеков ИИВ М ва МТТД Хўжалик бошқармасида хизматни давом эттирмоқда. А.Муродбековнинг турмуш ўртоғи капитан Муҳлиса Муродбекова ИИВ М ва МТТД канцелярия бошлиғи лавозимида хизмат қилмоқда.

Сулола давомчиларидан бири – Бахтиёр Муродбеков ИИВ Тезкор бошқармасида хайдовчи, яна бир ўғли Дилшод Муродбеков ҳам подполковник унвонида пенсияга чиқди.

– Отам бизга доим ҳалоллик ҳақида уқтирардилар, – дейди истеъфодаги подполковник Дилшодбек Муродбеков. – Одамларга фақат яхшилик қилинглар, дилини оғритманглар, бу дунёда инсондан фақат эзгулик қолади. Акаука, опа-сингилларга елкадош бўлиш кераклигини жуда кўп таъкидлар эдилар.

– Отам мен учун танти, мард, оилапарвар, меҳрибон инсон эди, – дейди кўп йиллар мобайнида ИИВ «зобит» маиший ишлаб чиқариш корхонасида тикувчи бўлиб ишлаган қизи Гулнора Муродбекова. – Улар оддийликни ёқтирардилар. Табиатни севар, дам олиш кунлари мўъжазгина ҳовлимизда мевали дарахтлар парвариши билан машғул бўлардилар.

Айтиш жоизки, сулоланинг кичик вакиллари дилида ҳам катта мақсад ва орзу-истаклар бисёр. Эркин аканинг невараси – Қодирбек Муродбеков ИИВ Ахборот технологиялари, алоқа ва ахборотни ҳимоялаш бошқармасида бўлим бошлиғи, капитан. Лейтенант Тоҳирбек Муродбеков ИИВ Қоровул қўшинлари ҳарбий қисм бўлинма бошлиғи лавозимида хизмат қилмоқда. Турмуш ўртоғи сафдор Гулбаҳор Муродбекова ИИВ Марказий поликлиникаси ҲТК шифокори.

Эваралар – Абдураҳмон ва Акбарбек Муродбековлар ИИВ 1-сонли лицейи ҳамда Миллий гвардияга қарашли «Темурбеклар мактаби»да таҳсил олишмоқда.

Донишмандлар айтганидек, дарахт мева бериб, ўтган-кетганлар мевасидан, ҳеч бўлмаса, соясидан баҳраманд бўлиши керак. Инсон эса ҳалол меҳнати, эзгу ишлари билан кишилар кўнглидан жой олиши лозим. Уста-дурадгор Эркин Муродбековда ана шу хислатларнинг барчаси мужассам эди.

**Азизжон ФАЙЗИЕВ,**
**майор.**

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

# XALQNING O'ZIDAY QADIM VA ULUG' AYYOM

**O'lkamizga yasharish ayyomi – Navro'zi olam kirib kelishi bilan ona zamin uzra ko'klam nafasi taralib, qalblarda o'zgacha orziqish, ko'tarinki kayfiyat, shod-u xurramlik va ezgu niyatlar butun borliq bilan hamohanglik kasb etadi.**

**Navro'z – tun bilan kunning tenglashishi, yangi davr, kunlarning uzayib, bog'-u rog', dalalarga rizq-ro'z qadash, mehnatning boshlanishidir.**

**Bu yil mamlakatimizda Navro'z umumxalq bayrami Prezidentimizning «2024-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, «Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!» degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko'tarinki ruh va yuqori darajada keng nishonlanadi.**

## AN'ANALAR SILSILASI

Milliy an'ana va qadriyatlarimiz jamlangan ushbu shodiyona kun xalqimizning o'ziday qadim va ulug'ligi haqida tarixiy manbalarda atroflicha so'z yuritilgan. Xususan, «yangi kun» ma'nosini beruvchi ushbu qadim va boqiy bayram, uning nishonlanishi Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Firdavsiyning «Shohnoma», Umar Xayyomning «Navro'znoma» kabi asarlarida miloddan avvalgi VI–V asrlarda boshlanganiga oid ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Navro'zning tarixiy ildizlari borasida juda ko'plab manbalar, jumladan, Avesto, Tabariyning «Tarixi Tabariy», Abu Rayhon Beruniyning «Tafhim», «Qonuni Mas'udiy», Mas'udiyning «Muruj az-zahab», Muhammad Husayn Burhonning «Forsnoma», Hofizi Abruning «Zubdat-at-tavorix», Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy», «Xazoyin ul-maoniy» asarlarida bayram va uning tarixiga oid qaydlar mavjud.

Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: «Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir, – deydi. – Navro'z yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatarkan. Navro'z eronliklar zijlari bo'yicha o'tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o'simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan».

## BAHOR ELCHISI

Musaffo osmon uzra sayir quyoshning charaqlab nur sochishi, qir-u adirlar yam-yashil o't-o'lanlar, boychechak-chuchmoma, lolaqizg'aldoqlarga burkanib, yangi kun, bahorni olqishlayotgan qushlarning yoqimli ovozi har qanday inson ruhiyatiga ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Ayniqsa, qadimdan bahor elchisi boychechak xonadonlarga shod-xurramlik, baxt va omad, to'kinlik va baraka olib keladi, degan tasavvur uyg'otgan.

Bu ajdodlarimizning o'zi bilan tabiat o'rtasiga chegara qo'ymagani, balki o'zlarini tabiatning bir bo'lagi, deb qaraganining ham bir isbotidir. Ular boshi uzra porlab turgan oy, quyosh hamda yulduzlar, atrofini o'rab turgan tabobat, nabototning sirini bilishga, undagi o'zgarishlar inson qalbi va ruhiyatiga ta'sir etishini anglaganlar. Tabiatni alqaganlar, samoni ulug'laganlar.

*Boychechakni tutdilar,*
*Tut yog'ochga osdilar.*
*Qilich bilan chopdilar,*
*Baxmal bilan yopdilar.*

Bu qo'shiq satrlari bir qaraganda, anchayin jo'n va tushuniksizdek tuyuladi? Ammo qo'shiqda boychechak muqaddas sanalib, «qurbonlik» qilinishi bilan bog'liq qadim marosim haqida so'z bormoqda. Qadimda qish uzoq cho'zilib, ko'klam kelishi intiqlik bilan kutilganda, Boychechak marosimi o'tkazilgan. Bu marosim qish va ko'klamning kurashini ifodalagan.

## SHOH TAOM

Boqiy ayyomning shoh taomi – sumalak va uning tayyorlanishi bilan bog'liq rivoyatlar tilimizda ko'p va xo'p aylanadi. Ushbu rivoyatlar zamirida esa bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilish, jipslashuv, yaxshi-yomon kunlarda birga, sabr va irodali bo'lishdek ezgu g'oyalar yotadi, albatta. Quvonarlisi, hozirda ham erta ko'klamdan keksa-yu yoshning birdek doshqozon boshida jam bo'lib, bahoriy taomni kovlashi, unga tosh tashlab, yaxshi niyatlar bilan duoga qo'l ochishi misolida ibratli hikoyatlar ayni kunlarda ham insonlar qalbida o'zining tarbiyaviy qimmatini yo'qotmay kelayotganining isbotidir. Shuningdek, sumalak, halim va ko'ksomsa, ko'kchuchvara singari ko'klam taomlari ilik uzildi paytida kishilarga quvvat bo'lishi, darmondorilarga boyligi bilan zamonaviy tibbiyotda ham tan olinayotgani hech birimizga sir emas.

## BARAKA FASLI

Har yili keksa-yu yosh uchun birdek orziqib kutiladigan va katta tantana bilan nishonlanadigan Navro'z bayrami umuminsoniy fazilatlar, milliylikka yo'g'rilgan urf-odatlar-u qadriyatlarimiz ifodasi yanglig' qalblarga olam-olam surur baxsh etadi.



Aynan Navro'z kunlarida amalga oshiriladigan bunyodkorlik va obodonchilik ishlari, mehr-saxovat tadbirlari, insoniy fazilatlar boshqa vaqtdagi ezgu amallarga qaraganda yorqinroq namoyon bo'ladi.

Sohibkor bog'bon-u dehqonlar, keksalar ko'klamning har daqiqasini qadrlab, g'ayrat-shijoat bobida yoshlarga ibrat bo'lishadi. Ular bosh bo'lib qadalgan har urug', har bir nihol ertangi kunga baraka, dasturxonlarga rizq-ro'z, el-u yurtga nasiba, farovon turmush omili bo'lib unadi, ko'kka bo'y cho'zadi.

## BOQIY QADRIYATLAR

Tabiatning yangilanishi bilan boshlanuvchi bu bayram qadimdan to bugunga qadar turli marosimlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Xususan, xalq sayillari, milliy o'yinlar – kurash, ko'pkari musobaqalari, teatr tomoshalari tashkil etiladi. Oddiygina o'tovdan tortib, yopilgan nonda, kashtachilik, naqshinkor gilamlarda ham tabiatga inja munosabat, uni ayash, ulug'lash yaqqol aks etadi. Ayniqsa, beg'ubor osmon bag'rida bahoriy nasimlarga qonib, yengil parvoz qilgan varraklar, bolalarning qiy-chuvlari-yu shodon kulgulari tabiatning uyg'onishiga rang kiritadi, go'yo. Ot, chillak, qo'g'irchoq, arqon tortish, tosh ko'tarish va boshqa o'yinlarning zavqi esa o'zgacha. Atlas va adrasdan tikilgan milliy liboslardagi bir-biridan chiroyli qizlar, beqasam to'nlar kiygan ko'rkam yigitlarning qiyofasida yangi kunning nashidasi ufurib turadi.

## FUSUNKOR BAYRAM

Navro'z – oddiy bir bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha tasavvurlari, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, millat bilan ulg'ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan va har jihatdan uning ong-u shuuriga o'zining benazir xosiyati bilan singib ketgan ayyom. Zotan, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, «xalqimiz milliy yuksalish va milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan hozirgi vaqtda barcha ezgu qadriyat va an'analarimiz qatori Navro'z bayramining ham hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda». Buni har yilgi Navro'zi olam ona xalqimizga milliy, azaliy urf-odatlar, qadriyatlar qanotida shodlik-xurramlik ulashib kelayotgani misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Zero, musaffo osmon ostida tinch-totuv umr kechirayotgan har bir yurtdoshimizning qalbiga ona tabiatning betakror fusunkorligi bilan ko'chgan ayyom, ularning o'zidek aziz va ulug'dir.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA.**

Урок духовности и просвещения

# НАВРУЗ: ДРЕВНИЙ, ВЕЛИКИЙ, НАРОДНЫЙ

**21 марта иранские и тюркские народы отмечают один из своих главных праздников – Навруз. Точнее, начинают отмечать, поскольку торжества и увеселения длятся месяц.**





Неосведомленные люди считают Навруз мусульманским праздником. На самом деле, он никакого отношения к исламу не имеет, и для большинства арабов не существует. Некоторые авторы связывают его установление с великим вероучителем VI века до н. э. Зороастром (Заратустрой), но доказательств этому нет. Более чем вероятно, что Навруз придумал народ.

День весеннего равноденствия (когда год поворачивает на весну) стал праздником солнца, будущего урожая, и вообще торжества жизни, а также началом нового года по солнечному календарю.

19 февраля 2010 года Генассамблея ООН единогласно признала Навруз и его традиции частью культурного достояния человечества.

Ведь в жизни народов не так много действительно важных событий, к тому же объединяющих, а не разделяющих людей.

Очень часто праздники создаются не смыслом, а традицией. Традиция же, согласно классическому определению великих, это когда люди поступают определенным образом без всякой логики, просто потому, что так раньше делали. А самые исконные праздники коренятся в природе. Солнце, огонь, земля, вода, урожай, рождение новой жизни, неизменный астрономический круговорот...

За свою тысячелетнюю историю праздник Навруз стал символом возрождения и обновления природы и общества, духовного очищения и самосовершенствования человека,

Данный светлый благословенный праздник олицетворяет благополучие, единство, братство и взаимную поддержку, все те непреходящие культурно-исторические ценности, объединяющие народы. Это великое наследие, доставшееся нам от общих предков, мы должны беречь и развивать его.

**Где празднуют Навруз?**




Навруз – интересный и необычный праздник, который можно изучать долго и до конца его не понять, как и все, что пришло к нам из глубины веков. Но можно прикоснуться к нему, познакомившись с традициями и, возможно, приготовить что-нибудь из традиционных блюд. А самое простое его послание заключается в том, что люди с окончанием долгой зимы и с приходом весны вступают в новый период своей жизни, в так называемый «новый день». Природа возродилась к жизни, и приглашает человека к тому же. Поэтому важно находится в согласии с природой и другими людьми. Этому и учит Навруз!



## Обычаи и традиции праздника

**С приходом Навруза уже начинаются полевые работы. Первую борозду проводит самый уважаемый человек села. А далее – по старшинству.**

* * *

*Во время Навруза нельзя ругаться, желать кому-то зла, обижать людей и убивать животных. А еще накануне положено прибраться в доме и раздать долги.*

* * *

**Устраиваются скачки и показательные выступления. Также состязаются мужчины и, конечно же, совсем не уступают в этом и дети. Среди них определяются победители в борьбе.**

* * *

*Самый главный обычай, существующий у всех народов, – это загадывание желания.*

* * *

**Опускание пояса в дымоход. Раньше, когда в домах еще стояли каменные печи, молодые влюбленные парни, забравшись на крышу, опускали в дымоход своей возлюбленной пояс, на конце которого привязывался платок. Это было предложение, как сейчас говорят, руки и сердца. Если родители были согласны, они завязывали платок на запястье девушки, если нет – наполняли платок сухофруктами и сладостями и отправляли обратно.**

* * *

*Встречают праздник богатым угощением, чтобы в доме было изобилие. Обязательным украшением стола являются проросшие зеленые побеги пшеницы, как символ рождения новой жизни. При этом важно не покупать на базаре готовый «зеленый букет», а вырастить его своими руками. Именно так можно привлечь достаток и благополучие.*

* * *

**В этот день принято принимать гостей и самим ходить в гости. Как правило, в первую очередь посещают отдельно живущих родителей, близких родственников, угощают соседей и сами возвращаются с угощениями.**

* * *

*В настоящее время в сценарий праздника, помимо традиционных мероприятий, включаются концерты, выставки прикладного искусства, конкурсы.*

JIZZAX TOMONLARDA

# MAYORNING ISHONCHI KOMIL

Do'stlik tumanining «Saritepa» mahalla fuqarolar yig'inidagi 10-sonli huquq-tartibot maskani o'tgan yilning avgust oyida ochilgan bo'lib, bu yerda mahalla beshligi, ichki ishlar organlarining bir qator sohaviy xizmatlari va Milliy gvardiya xodimlari uchun qulay xizmat sharoitlari mavjud. Mazkur jihat jinoyatchilikka qarshi kurashish, surishtiruv, tergov hamda qidiruvdagi shaxslarni topish, jinoyat o'choqlari hisoblangan joylarni nazoratga olish, tungi patrullik va huquqiy e'tibordagi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni o'tkazish borasidagi hamkorligini yanada kuchaytirishda omil bo'lmoqda. Mahallaning turli joylariga o'rnatilgan 19 ta kuzatuv kamerasining profilaktika inspektori xizmat xonasiga integratsiya qilingani esa hududni nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ta'kidlash lozimki, mahalla beshligi tomonidan aholi muammolarini hal qilish borasida e'tiborga molik ishlar qilinayotir. Chunonchi, «Saritepa»da osoyishtalik va jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan profilaktika katta inspektori, mayor Ilhom Shodmonov tomonidan o'tgan yilda mahalla to'rtligiga 144 ta xulosa kiritilgan bo'lib, shu asosda fuqarolarni bezovta qilayotgan 96 ta masalaga yechim topildi.



Umuman olganda, mahalla beshligining sa'y-harakati bilan «Saritepa»da 339 kishi ishga joylashtirildi. 210 kishining o'zini o'zi band qilishiga ko'maklashildi. Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan 83 nafar fuqaroga imtiyozli kredit, 24 kishiga subsidiya, 12 kishiga esa yuk tashish mototransportlari ajratildi. 70 nafar yosh kasb-hunarga o'qitildi. 296 fuqaroning daromad manbaiga ega bo'lishlari uchun 134 gektar yer berildi. Aholining turmush madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan shu kabi chora-tadbirlar huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishda ham muhim o'rin tutmoqda.

Jumladan, o'tgan yili mazkur mahallada jinoyat ro'y bermadi. Mayor joriy yilda ham mahallasining «yashil» toifada bo'lishiga ishonadi. Ilhom Shodmonov shu yilning yanvar oyida «Namunali huquq-tartibot maskanlari» ko'rik-tanlovining Jizzax viloyati bosqichida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan.

# O'ZINI SHUBHALI TUTGANI BOIS...



**Zomin tumanida viloyat IIB sohaviy xizmatlarining 25 nafar xodimi, tuman IIB shaxsiy tarkibi hamda mahalla faollari ishtirokida reydlar uyushtirilib, 168 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlandi.**

Reyd davomida jamoat joylarida spirtli ichimlik iste'mol qilgani uchun 12 nafar, bezoriligi uchun 2 nafar, transport vositalarini tegishli hujjatlarsiz boshqargani uchun 27 nafar, pasport tizimi qoidalarini buzgani uchun 16 nafar shaxsga ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Masalan, o'zini shubhali tutgani bois «Hamid Olimjon» mahallasida yashovchi O.S. ichki ishlar organlari binosiga keltirilib, shaxsiy tintuvdan o'tkazilganida cho'ntagidan qog'ozga o'ralgan 3,56 gramm marixuana topildi.

Tadbir doirasida 546 ta bino va inshootlar, xususan, tashkilot va korxonalar, ko'p qavatli uylar, ovqatlanish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari qonunbuzarliklar profilaktikasi, qolaversa, yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish nuqtayi nazaridan ko'zdan kechirildi.

Shuningdek, jazoni ochiqda o'tayotgan mahkumlar hamda ma'muriy nazorat ostiga olingan 59 nafar shaxsning yashash xonadonlarida bo'linib, sud tomonidan belgilangan majburiyat va cheklovlarga amal qilishlari tekshirildi. Ularning muammolari o'rganilib, hal qilish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.



# YANGI O'Q OTISH TRENAJYORI



Viloyat IIB MMI va KTBX Jismoniy va jangovar tayyorgarlik bo'limi qoshida panorama ekranli taktik o'q otish elektron trenajyori ishga tushirildi. Mazkur trenajyor bir vaqtda 3 nafar xodim ishtirokida avtomatik qurol yoki to'pponchadan o'q otish mashg'ulotlarini o'tkazish imkonini beradi hamda nishonning qanchalik aniq urilganligi asosida merganning mahoratini baholaydi.

Uskuna orqali xodimlar turli vaziyatlar – uzoq va yaqin masofalarda, kechasi, kunduzi, tog'da, tekislikda, ko'chada, bino ichida, piyodalar va zirhli texnikalar ishtirokidagi jangda, o'q otish maydonida, quyoshli, tumanli, yomg'irli sharoitda quroldan foydalanish ko'nikmalarini oshira oladi.



Sahifa materiallarini o'z muxbirimiz Alijon ABDUSATTOROV tayyorladi.

Postda
На посту

ТЎМАРИС ИЗДОШЛАРИ

# ОРЗУГА ЕТМОҚ ОСОНМАС...

**Оила юмушларидан, фарзанд тарбиясидан ортиб, жамиятнинг турли жабҳаларида фидойиларча меҳнат қилаётган аёллар ҳар қанча эъзоз ва эҳтиромга лойиқ. Айниқса, ички ишлар органларида фаолият юритаётган хотин-қизларнинг хизмати анчайин машаққатли ҳисобланади.**



Ана шундай аёллардан бири ИИВ ҳузуридаги ЖИЭД Биринчи минтақавий ҳудудга қарашли 24-сон Тарбия колонияси тарбия бўлими бошлиғи, майор Нигора Даминовадир. Лавҳамиз қаҳрамони 2002 йили 1-сон Тошкент педагогика билим юртини тамомлагач, Янгийўл туманидаги мактаблардан бирида болаларга сабоқ бера бошлайди. У ўн йил давомида ушбу касбда фаолият юритгач, олий маълумотли бўлиш учун Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетининг сиртқи бўлимига ўқишга киради. Бу орада икки нафар шириндан-шакар фарзанднинг онаси бўлади. Олий ўқув юртини тугатгач, 2012 йили 21-сон ЖИЭК туркум бошлиғи бўлиб ишга ўтади.

– Турмуш ўртоғим мазкур соҳада ишлагани учун мен ҳам бу касбга қизиқиб қолдим, – дейди Нигорахон биз билан суҳбатда. – Қолаверса, қайнукам ҳам ички ишлар органи ходими эди. Билмаганларимни улар ўргатишди.

Майор Нигора Даминова 2019 йилда 24-сон Тарбия колонияси Тарбиявий ишлар бўлими бошлиғи этиб тайинланди. Айни пайтда илм олишдан, изланишдан сира тўхтамайди. 2022 йили ИИВ Академияси Магистратураси тингловчилари сафига қўшилди. Фанларни яхши ўзлаштирган тингловчилар қаторида Жанубий Корея полиция тизимини ўрганиш учун хизмат сафарида бўлди ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясида малака ошириш курсларида таҳсил олди.

Нигора барча муваффақиятларга яқинларининг кўмаги, устозларининг йўл-йўриқлари туфайли эришдим деб ҳисоблайди, инсонлардаги самимийлик ва оддийликни жуда қадрлайди. Биз эса бунда энг аввало ўзининг қобилияти, интилувчанлиги муҳим омил бўлган деб ўйлаймиз.

Ҳозирда у 24-сон Тарбия колониясидаги билиб-билмай жиноят кўчасига кириб қолган ёшларни тўғри йўлга солиш мақсадида сидқидилдан хизмат қилиб келмоқда. Бу борада эришган ютуқлари учун шу йили «Тўмарис» кўкрак нишони билан тақдирланди.

Кўпчилик хотин-қизлар Нигорага ҳавас билан қараши табиий. Улар «Қанийди, мен ҳам шу соҳада фаолият юритсам», дея орзу қилишади. Лекин шоир ёзганидек:

**Орзуга етмоқ осонмас,**
**Армон бўлган билан.**
**Манзилга етмоқ осонмас,**
**Сарбон бўлган билан.**

Бунинг учун лавҳамиз қаҳрамонидек қатъиятли, ғайрат-шижоатли бўлиш, илм олиш, ўқиб-ўрганиш, ҳамиша изланиш талаб этилади.

**Ҳадича ЎТАЕВА,**
**капитан.**

ХИЗМАТДАН ТАШҚАРИДА

# ОТГА МЕҲРИМ БЎЛАКЧА

## – дейди катта лейтенант Беҳзод Мамуров

**Юрт осойишталиги йўлида хизмат қилаётган ички ишлар органлари ходимлари орасида бўш вақтини ўзининг ҳаётий қизиқишларига бағишлаб, уни мазмунли ўтказаётганлар ҳам кўплаб учрайди. Қибрай тумани ИИБ Жиноят қидирув бўлими тезкор вакили, катта лейтенант Беҳзод Мамуровнинг отларга меҳри баланд, от парваришлашни ўзига хос хоббига айлантирган.**



У хизматдан уйига келиши биланоқ, тўғри отхонага йўл олади. «Жайрон», «Кўксарой», «Тўриқ», «Қорахон» лақабли зотдор отларининг ем-хашагидан хабар олиб, ёток жойининг тозалигига эътибор қаратади. Инсоннинг азалий дўсти бўлган жониворлар билан тиллашиб, барча чарчоқлардан халос бўлади.

– Болалигимдан отга меҳрим бўлакча, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Айниқса, уни эгарлаб, кенг далаларни сайр қилганимда бутун вужудим борлиқнинг ифоридан тўйиб-тўйиб баҳра олади. Бунинг учун тоғам, истеъфодаги полковник Тўлқин Саидвалихўжаевдан жуда миннатдорман. Чунки у кишининг от парваришлашини кўриб, менда ҳам отларга қизиқишим уйғонган.

Беҳзод ҳар куни эрта тонгдан туриб, отларининг озиқасини беради, елларини силаб, кўнгли хотиржам бўлгач, хизматга отланади. Куннинг қолган қисмида эса оила аъзолари жониворларнинг ҳолидан хабар олиб, ғамхўрлик кўрсатишади. Дам олиш кунлари унинг ўзи отларини ташқарига олиб чиқиб, кирларини тозалайди. Ёз ойларида эса уларни вақти-вақти билан чўмилтиради. Шу билан бирга, белгиланган пайтда отлар учун керакли эмлашларни олиб, ветеринар текширувидан ўтказади.

– Отлар тўғри парваришни хуш кўради, – дейди у. – Чунки ўз вақтида, тўғри озиқлантириш уларнинг саломатлиги омили ҳисобланади. Акс ҳолда, отлар бетоб бўлиб қолиши мумкин. Шу сабабли доим уларнинг соғлиғи учун қайғуриб келаман.

**Миҳли САФАРОВ,**
**ўз мухбиримиз.**

*Тошкент вилояти.*



Женщина – семья – общество

# В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ

**Согласно распоряжению начальника УВД Ферганской области проводится специальное мероприятие «Турмуш» по индивидуальной работе с лицами, требующими особого внимания, профилактике семейного насилия.**






Основное внимание уделяется махаллям, включенным в категорию «красных». Для этого созданы рабочие группы во главе с заместителем хокима области, начальником областного управления семьи и женщин Комилой Кавлоновой и заместителем начальника УПП СОБ УВД Ферганской области майором Дилшодой Уриновой. Рабочие группы совместно с организациями-партнерами по принципу «махаллабай» и «хонадонбай» изучают ситуацию в махаллях, реализовывают меры раннего предупреждения преступлений.

С целью защиты женщин и девушек от притеснений и насилия в сходах граждан проведено более тысячи мероприятий правовой пропаганды. 78 женщинам выданы охранные ордеры. В отношении четырех граждан, не выполнявших требования ордеров, оформлены соответствующие документы согласно Кодексу об административной ответственности.

В регионе действует центр правовой защиты детей и женщин «Мехржон», сотрудники которого принимают активное участие в мероприятиях.

– Особое внимание уделяем встречам с учащимися-девушками, – говорит майор Дилшода Уринова. – На них затрагиваются вопросы, связанные с воспитанием, культурой, разъясняются последствия ранних и родственных браков. С теми, в чьем поведении проявляется склонность к правонарушениям, психологи ведут индивидуальные беседы, за ними закрепляются наставники.

**Абдувосит СИДИКОВ,**
**соб. корр.**
*Ферганская область.*

Кашкадарьинская область

# НОВЫЕ ГРАНИ РАБОТЫ КИНОЛОГОВ

**Отделы кинологии органов внутренних дел вправе на договорной основе заниматься дрессировкой собак физических и юридических лиц, оказывать платные услуги по временному содержанию четвероногих питомцев в питомниках отделов кинологии и т.д.**



В рамках данного документа отделение кинологии Управления охраны общественного порядка службы общественной безопасности УВД Кашкадарьинской области проводит определенную работу. Налажено оказание услуг по подготовке собак физическим и юридическим лицам.

Доводятся требования относительно свидетельства на собаку, сертификата, подтверждающего прививки, сведений о породистости.



Руководство УВД уделяет большое внимание укреплению материально-технической базы кинологической службы. На базе питомника организованы курсы по повышению квалификации сотрудников, внедрению передовых методов работы.

С целью повышения интереса молодежи к сфере кинологии сотрудники отделения проводят в образовательных учреждениях встречи. На них разъясняются цели и задачи службы, устраиваются показательные выступления питомцев. Примечательно, что участвующая в них молодежь также демонстрирует достижения в дрессировке своих любимцев.

**Бобоназар МАМАНАЗАРОВ,**
**старший сержант.**

8 MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

# KASBGA MUHABBAT KUCH VA ILHOM BERADI



**Ba'zilar «Harbiy libosdagi xizmat ayollarning ishi emas», deydi. Lekin aynan shu kasbni tanlagan xotin-qizlar bu fikrning noto'g'ri ekanini isbotlab kelmoqda.**

Bilim, iste'dod va tinimsiz mehnat ichki ishlar organlari xodimlariga yuksak natijalarga erishish imkonini bermoqda. Andijon viloyati ichki ishlar organlarida ham ko'plab iqtidorli ayollar xizmat qiladi. Ular orasida tizimda 15–20 yildan buyon faoliyat olib borayotganlar ham talaygina.

Iroda Muhamedova 2000-yilda Andijon qishloq xo'jaligi institutining iqtisodiyot fakultetini tamomlab, ichki ishlar organlari safida xizmatga kirishdi va viloyat IIB Moliya-iqtisodiyot bo'limi iqtisodchisi lavozimiga tayinlandi. Tajribali ustozlar, podpolkovniklar Ne'matjon Otaxonov va Dilshodbek Mamajonovning yordami bilan tez orada o'z sohasining chinakam sohibiga aylandi.

Buxgalter, moliya-iqtisodiyot bo'limi katta mutaxassisi lavozimlarida faoliyat olib borgan Iroda, 2017-yilda viloyat IIB Moliyaviy ta'minot xizmatining pensiya ta'minoti bo'linmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

– Xizmat faoliyatimiz katta mas'uliyatni talab qiladi, – deydi mayor Iroda Muhamedova. – 5300 dan ziyod pensionerga pensiya to'lovini hisoblash oson ish emas. Lekin bo'linma xodimlari yuklatilgan majburiyatlarni a'lo darajada ado etib, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarib kelishmoqda.

Iroda Andijon banklaridan birida buxgalter bo'lib ishlayotgan turmush o'rtog'i Akramjon bilan uch nafar farzandni tarbiyalamoqda. O'g'illari Abbosbek va Ilyosbek oliy o'quv yurtlarida tahsil olishmoqda, kenja qizi Nozilabegim esa maktab o'quvchisi.

– Xizmatdan bo'sh vaqtimda kitob o'qishni, milliy taomlar tayyorlashni yaxshi ko'raman – deydi mayor I. Muhamedova. Lekin eng maroqlisi – oilam bilan birga vaqt o'tkazish. Barcha qiyinchiliklarga qaramay, tanlagan yo'limdan afsuslanmayman.

**Boris KLEYMAN,**
**o'z muxbirimiz.**

*Andijon viloyati.*



**Abdulla ORIPOV,**
**O'zbekiston Qahramoni,**
**xalq shoiri.**

## AYOL MADHI

Dunyoga keltirding — onamsan,
Men uchun tengi yo'q olamsan.
Yoritding hamisha yo'limni,
Sevikli qizimsan — bolamsan.
Bormikan sendayin iboli,
O'zbekning farishta ayoli.

Temurbek yonida Bibixon,
Poyingga sochildi kahkashon.
Gohida anordek ezilding,
Uvaysiy qalbiday bag'ring qon.
Husningdir goh umring zavoli,
O'zbekning farishta ayoli.

Momosan, Atoda haqqing bor,
Bu go'zal dunyoda haqqing bor.
Yurtim deb jangga ham kirgan sen,
Yod etsa, duoda haqqing bor.
Ot surding To'maris misoli,
O'zbekning farishta ayoli.

Sen ozod zamonga yetishding,
Hur, obod davronga yetishding.
Farzandlar yulduzdek parvona,
Ming yillik armonga yetishding.
O'zingsan Vatanning jamoli,
O'zbekning farishta ayoli.

PROFILAKTIK TADBIRLAR

# OSUDA TURMUSHGA ZAMIN

**Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» tadbiri doirasida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishga jalb etilgan ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari, mahalla faollari va jamoatchilik vakillaridan iborat guruhlar tomonidan o'rganishlar olib borildi.**

Dastlab tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarning yashash uylariga mahalla mas'ullari bilan birgalikda borilib, oila a'zolari bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Nizoli oilalarda aniqlangan muammolar bartaraf etilib, ayrim xotin-qizlarga himoya orderlari berildi.

Muqaddam sudlangan, profilaktik hisobda turgan, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan, ichkilikbozlikka ruju qo'ygan qirqqa yaqin fuqarolar bilan ham profilaktik suhbat o'tkazilib, ayrimlari shifoxonalarga yotqizildi. Probatsiya hisobida va ma'muriy nazoratda turgan bir guruh shaxslarning ish va yashash joylari o'rganildi, tegishli ta'sir choralari qo'llandi. O'rganishlar davomida «Yonqishloq» mahallasida yashagan voyaga yetmagan E.F. nazoratsiz va qarovsiz qolgani sababli viloyat IIB JXX HPB VEIHYOK markaziga joylashtirildi.

Tuman hududidagi maktablarda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha yig'ilishlar, «Davomat» va «Tig'» tadbirlari o'tkazildi. Aniqlangan qonunbuzarlik holatlari bo'yicha voyaga yetmaganlarning ota-onalariga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.





Profilaktik tadbirlar davomida pasport-viza qoidalariga rioya etilishini o'rganish masalasi ham e'tibordan chetda qolmadi.

Tuman IIB JXX YHXB xodimlari tomonidan yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi uyushma va korxonalar bilan hamkorlikda haydovchilar o'rtasida yo'l-transport hodisalari sodir etilishining oldini olish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazildi. Reyd tadbirlari davomida esa yo'l harakati qoidalarini buzgan qirq nafarga yaqin haydovchilarga nisbatan jarima jazosi tayinlanib, avtomashinalar vaqtinchalik jarima maydoniga qo'yildi. Bundan tashqari, avariya «o'choqlari»ga yo'l belgilari, tuman markazidagi chorrahalarga esa kuzatuv kameralari o'rnatildi.

**Sodiq RAHIMOV,**
**o'z muxbirimiz.**

*Qashqadaryo viloyati.*

INSON QADRI UCHUN

# ILMIY IZLANISHLAR SAMARASI

**IIV huzuridagi JIED 23-son MUIK ko‘p tarmoqli klinikasi shifokori, kapitan Gulnora Xamrayeva bir necha yillik ilmiy izlanishlar natijasida uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqdi. Mazkur tavsiyalar kasalliklarni erta tashxislash davolash rejasiga qo‘shimcha dori vositalarini o‘z vaqtida tayinlanish, komorbid holatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, kasalliklarning rivojlanishini kamaytirishga, davolash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga bemorlarning nogiron bo‘lishining oldini olishga, ularning hayot sifatini yaxshilashga imkon beradi.**



Tibbiyotda juda ko‘p hollarda qo‘shma kasallik va sindromlar bilan og‘rigan bemorlarni davolashga to‘g‘ri keladi. Qo‘shma patologik buzilishlar yangi bir klinik holatni yuzaga keltiradi. Bu esa tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonining har bir bosqichida shifokordan katta mas’uliyat va alohida e’tibor talab etadi.

Komorbid holat va tashvishli-depressiv buzilishlar oxirgi yillarda o‘tkazilayotgan tadqiqotlar markazida bo‘lmoqda. Shunga qaramay, bugungi kunda komorbidlik va tashvishli-depressiv buzilishlarning o‘zaro bog‘liqlik masalasi ochiqligicha qolmoqda.

**Komorbid holat (lotincha co – birgalikda, morbius – kasallik) ikki yoki undan ortiq kasalliklarning bitta organizmda, bir vaqtda rivojlanishidir.**

**Tashvishli-depressiv buzilishlar (TDB) jiddiy ijtimoiy va tibbiy muammoga aylanib bormoqda. XXI asr boshida ushbu buzilishlar umumiy ruhiy kasalliklarning 40 foizini tashkil qilganligi buning yaqqol isbotidir.**

Penitensiar tizim muassasalari sharoitida saqlanayotgan dispanser nazoratiga olingan 40-45 foiz bemor erkaklarda komorbid holatlar kuzatiladi. Bu esa jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar orasida kasalliklarning ko‘payishi hamda og‘ir asoratlarga olib kelishi mumkin. Natijada nogironlik hamda o‘lim ko‘rsatkichlarining ortishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, mahkum jazo muddatini o‘tab bo‘lganidan keyingi hayoti davomida turli salbiy oqibatlarga olib kelishi xavfi ham mavjud.

Bundan tashqari, komorbid holatlarining rivojlanishi, tibbiy tekshiruv va davolash usullari murakkablashishi, davolash samaradorligi pasayishi, bir vaqtning o‘zida ko‘plab turli konservativ davo muolajalarini qo‘llanilishi ham iqtisodiy, ham jismoniy zarar keltiradi. Komorbid holatlarda yurak-qon tomir (YUQT) kasalliklari bor




bemorlar orasida depressiya mavjudligini erta skrininglash asosiy kasallikni yanada kuchayishining oldini olishga va o‘z vaqtida malakali yordam ko‘rsatishga zamin yaratib, bemorlar hayoti sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Shunday qilib, adabiyot manbalarida tanlangan mavzuning dolzarbligi ta’kidlanib, maxsus kontingentli bemorlarda TDB muammosini komorbid patologiyada kardiovaskulyar kasalliklarni metabolik buzilishlar bilan birgalikda kechishini yanada keng va chuqurroq o‘rganish zarurati ko‘rsatilgan.

**Ilmiy izlanishdan ko‘zlangan asosiy maqsad penitensiar tizim muassasalari sharoitida saqlanayotgan tashvishli-depressiv buzilishlari mavjud erkak bemorlarda komorbid holatlari rivojlanishining diagnostik prediktorlarini aniqlashdan iborat edi.**

Barcha bemorlarga depressiya belgilari gospital tashvish-depressiya shkalasi HADS yordamida aniqlanib, umumiy klinik tekshiruvlar, koagulogramma (protrombin vaqti, trombin vaqti, fibrinogen, faollashtirilgan qisman tromboplastin vaqti), qondagi glyukoza, siydik kislotasi miqdori hamda tana vazni indeksi kabi ko‘plab tekshiruvlar o‘tkazildi.

Samarali profilaktik davolash komorbid holatlar rivojlanish darajasini pasaytiradi, nogironlik va o‘lim xavfini kamaytiradi, kasalxona sharoitida davolash kunlarini qisqartiradi, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik kunlarini kamaytiradi. Shuningdek, murakkab davo choralari va turli dori vositalari yordamida uzoq vaqt davolanish kabi iqtisodiy zararlarning oldini oladi, dori-darmonlarga sarflanadigan xarajatlarni samarali kamaytiradi. Kasalliklarni avj olishini kamaytirish orqali nogironlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pasayishiga yordam beradi.

Tadqiqot bemorlar guruhlarida prediktor markerlari bo‘lgan fibrinogen, C-reaktiv oqsil bilan TDB orasida bog‘liqlik bo‘lib, ikkala marker ko‘rsatkichlarining ortib borishi TDB qo‘shilishi bilan komorbid holatning zo‘rayishini tasdiqladi. Tana vazn indeksining ko‘payishi bilan komorbid holatning kuchayishi o‘zaro mos ravishda ortib borishi aniqlandi.

**Komorbid holatlarda YUQT kasalliklari bilan metobolik buzilishlar birgalikda kechganda siydik kislotasining qondagi darajasini aniqlash kardiovoskulyar kasalliklarni salbiy oqibatlarini erta aniqlash va oldindan prognoz qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Qonda qand miqdori oshganda hamda semizlik mavjud bo‘lganda TDB belgilarini namoyon bo‘lishi – yurak ishemik kasalliklarining avj olishi, gemostaz tizimi va metobalizmning o‘zaro nomutanosibligini prognozlash mumkinligi tasdiqlandi.**

IIV huzuridagi JIED boshlig‘ining 2024-yil 15-yanvardagi 13-sonli farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida Birinchi mintaqaviy hududda joylashgan jazoni ijro etish koloniyalarida tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha xizmat qilayotgan xodimlar Mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxona ko‘p tarmoqli klinikasida o‘quv mashg‘ulotlariga jalb etildi. Ushbu tajriba almashish davomida ko‘p tarmoqli klinika shifokori, kapitan G. Xamrayeva tomonidan «Tashvish-depressiv buzilishlari mavjud bemorlarda komorbid holatlarni erta tashxislash usullari» mavzusida o‘quv mashg‘uloti o‘tkazildi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan tavsiyalar va o‘tkazilgan o‘quv mashg‘uloti tashvish-depressiv buzilishlari mavjud bemorlarda komorbid holatlarni erta tashxislash davolash rejasiga qo‘shimcha dori vositalarini o‘z vaqtida tayinlanishiga imkon beradi. Komorbid holatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga, kasalliklarning rivojlanishini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijasida davolash samaradorligi oshib, bemorlar nogironligining oldini olinadi, ularning hayot sifati yaxshilanadi.

**Bahodir YUSUPOV,**
**polkovnik.**

В образовательных учреждениях МВД

# ВКЛАД В ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ

**Подполковник в отставке Орзумурод Шадиев два с половиной десятилетия плодотворно служил в органах внутренних дел. С 1992 года работал по разным линиям, занимал руководящие должности. Трудился в Управлении уголовного розыска Сурхандарьинского областного УВД, центре реабилитации, отделах угрозыска горных районов, в Управлении обеспечения общественного порядка на транспорте, отделах внутренних дел Кызырыкского и Бандиханского районов.**

– Интерес к этой сфере привили мне отец и брат, служившие в органах внутренних дел, – говорит О. Шадиев. – Они же помогали советами в годы профессионального становления. Были непростые периоды, ответственные задания. Участвовал в спецоперациях по задержанию преступных групп в горных районах Сариасийского района.

После выхода в 2016 году на пенсию Орзумуроду Шадиеву предложили преподавать в Сурхандарьинском академическом лицее МВД. Вскоре спецпредмет, который вел подполковник, стал любимым среди учащихся.

О. Шадиев находит индивидуальный подход к каждому лицеисту. При разъяснении новой темы




в качестве наглядного примера приводит конкретный эпизод из собственной практики. Вне уроков ведет также кружок по правоведению. «Там, где есть дисциплина, царит порядок», – убежден О. Шадиев.

За вклад в патриотическое воспитание молодежи в 2023 году подполковник в отставке был поощрен Министерством внутренних дел. В нынешнем году О. Шадиев признан лучшим в номинации учителей спецпредметов в смотре-конкурсе «Преподаватель года».

«Знающий и требовательный педагог», – так отзываются о нем учащиеся.

**Феруза РАХМОНКУЛОВА, соб. корр.**

*Сурхандарьинская область.*

Сырдарьинская область

## В центрах оперативного управления организационных управлений областных УВД работают профессионалы.



За плечами подполковника Ж. Эргашева два десятилетия образцовой службы. Высоко оценивая опыт сотрудника, руководством УВД Сырдарьинской области было принято решение назначить его первым заместителем начальника организационного управления – начальником центра оперативного управления.

– Разработан и реализуется ряд планов по обеспечению эффективного выполнения задач, возложенных на управление, службу «102», дежурные части, – говорит подполковник Ж. Эргашев. – Незамедлительно «включить» механизм по раскрытию преступлений по горячим следам, сигнал о которых поступает по системе «102», задействованию необходимых сил и средств, – наша важнейшая функция. В минувшем году по более чем 40 тыс. обращений была организована работа подразделений городских и районных ОВД.

**Абу КЕНЖАЕВ, фотокорреспондент «Postda».**



# HAYOTIMIZ NAQSHIDIR AYOL

## Namangan viloyati



**Mingbuloq tumanida, ishchi oilasida tug'ilib, katta bo'lganman. Ota-onam mehribonligi, mehnatkashligi va kamtarligi bilan doimo menga o'rnak bo'lgan. Ular bizning harakat va intilishlarimizni qo'llab kelishgan.**

Namangan yuridik kollejini tamomlab, dastlab viloyat IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi Manzil-ma'lumotlar byurosida erkin yollangan xodima sifatida ish boshladim. 2017-yil shahodatlangan xodim sifatida faoliyatimni davom ettirdim. Hozirda IIV Akademiyasi sirtqi ta'lim fakultetining 3-bosqich tinglovchisiman.

Sohamizda fidoyi ayol xodimalar safi ortib borayotganidan quvonaman. Ularning o'zaro muloqotlarda odamlar dardini his etish, biror bir masalani muloyimlik, samimiyat bilan hal etishlari kishini quvontiradi. Biror fuqaroning muammosi ijobiy hal bo'lib, qayta-qayta rahmat aytganida bor mashaqqatlarni unutaman. Vazifamni sidqidildan bajarayotganimdan mamnunlik his qilaman.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha ayollarni, xususan, ichki ishlar organlarida erkaklar bilan yelkama-yelka xizmat qilayotgan opa-singillarimizni bahorning ilk ayyomi – 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan muborakbod etaman. Kasbingizdan baxt topib doim el-yurt hurmatiga sazovor bo'ling, aziz hamkasblarim!

**Munojot TUROPOVA,
viloyat IIB JXX YHXB
Tashkiliy bo'limi
murojaatlar bilan ishlash
kichik inspektori, safdor.**

## Toshkent viloyati

Osoyishtaligimizning hushyor va dovyurak ayol posbonlari erkaklar bilan bir safda, yelkama-yelka turib xizmat qilish bilan birga, yoshlarimizning mehribon murabbiylari, oilamizning oqila va dono tarbiyachilari ham sanaladi.

Chinoz tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, podpolkovnik Mahfuza Sirajova, Toshkent tumani IIB 1-sonli Ichki ishlar bo'limi surishtiruv guruhi surishtiruvchisi, kapitan Shahnoza Rahmataliyeva, leytenantlar – Chirchiq shahar IIB JQB tezkor vakili Hilola Karimova, Bo'stonliq tumani IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'limi jamoat tartibini saqlash guruhi katta inspektori Nigina Yuldosheva hamda To'rtinchi mintaqaviy hudud Patrul-post xizmati otryadi uchinchi guruh safdor xodimi Dildora Kamolova kabi ko'plab mehnatsevar ayollarni faxr va iftixor bilan tilga olish mumkin.

– Hayotim davomida sevgan kasbim bilan shug'ullanib, undan hurmat-e'tibor topayotganligimdan behad mamnunman, – deydi viloyat IIBB MMI va KBTX boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, kapitan Mohira Sobirova. – Chunki inson uchun bundan ortiq baxt va saodat bo'lmasa kerak.

Zotan, bunday go'zal fazilatlarga ega bo'lgan matonatli va dilbar barchinoylar bilan har qancha faxrlansak ham kamdir.

**O'z muxbirimiz.**



HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

# QONUN USTUVOR EKAN, JAZO MUQARRAR




**Sohada korrupsiyaga qarshi kurashish, shaxsiy tarkib o'rtasida xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlash, xodimlarning huquqiy ongini yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasi o'laroq, lavhamiz qahramoni singari xodimlar korrupsion holatlar, pora bermoqchi bo'layotgan shaxslar haqida xabar berib, halolligini, burchiga, qasamyodiga sodiqligini amalda namoyon etishyapti.**

Safdor Sabriddin Shodiyev Navoiy viloyati IIB JXX YHXB 2-batalyoni 3-safarbarlik otryadida safdor inspektor lavozimida faoliyat ko'rsatadi. Uning asosiy vazifasi xavfsiz harakatni tashkil etish, qoidabuzarlarga nisbatan chora ko'rish, yo'llarda turli noxush holatlarning oldini olish, haydovchilar hamda piyodalar o'rtasidagi yo'l harakati qoidalarini targ'ib etishdan iborat.

YPX inspektori, safdor S. Shodiyev Zarafshon – Konimex yo'nalishida harakatlanib kelayotgan avtomashinani to'xtatib, hujjatlarini tekshirdi. Tekshirish chog'ida uning texnik ko'rikdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlari yo'qligi ma'lum bo'ldi. Boz ustiga, «Damas»ga ortilgan qoplarga tarkibida oltin zarralari bo'lgan tog' jinsi joylangan edi. Transport vositasi jarima maydoniga olib borildi.

Shunda haydovchining yonidagi yigit inspektorga hammasini «bosdi-bosdi» qilish, mashinani jarima maydonidan chiqarib berish evaziga 2 million so'm pora taklif qildi. Safdor Sabriddin Shodiyev pora berish va olishning jinoyat ekanligini qayta-qayta eslatishiga qaramasdan, yigit uni pora olishga undashda davom etdi.

Shundan so'ng xodimning rahbariyatga taqdim etgan bildirgisiga asosan tezkor tadbir o'tkazildi. Natijada fuqaro xodimga 1,5 million miqdordagi so'mni pora sifatida berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi. Hozirda ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlashni istardikki, kimgadir pora bersam, yopig'liq qozon yopig'lig'icha qoladi deganlar chuchvarani xom sanashadi. Toki jamiyatda qonun ustuvor ekan, har kim noqonuniy qilmishiga yarasha javob berishi, jazoga tortilishi muqarrar.

**Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.**
*Navoiy viloyati*

Postda
На посту

# NIHOL
## yoshlar sahifasi

## TIRISHGAN TOG‘DAN OSHAR



**Rayhona Ro‘ziboyeva Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi «Nurli maskan» maktab-internatida tahsil oladi.**

U o‘tgan yili bo‘lib o‘tgan «Besh tashabbus» paralimpiadasining Respublika bosqichida yengil atletika yo‘nalishida faxrli 3-o‘rinni egallagan. Shu yilning fevral oyida bo‘lib o‘tgan fan olimpiadasining viloyat bosqichida algebra fanidan 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Rayhona o‘zining odobi va na’munali xulqi, barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtirishi bilan tengdoshlariga na’muna bo‘lib kelmoqda.

*Sirdaryo viloyati.*



**IIV Surxondaryo akademik litseyi o‘quvchisi Feruza Safarova a’lochi o‘quvchilardan biridir.**

– Hozir xorijiy tillarni mukammal o‘rganyapman, – deydi u.
– O‘tgan yili ingliz tili bo‘yicha milliy sertifikatga ega bo‘ldim. Shuningdek, badiiy asarlar mutolaa qilishni xush ko‘raman.

Feruza litseyda o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlarda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishdan erinmaydi. O‘tgan yili Ichki ishlar vazirligining «O‘qishdagi muvaffaqiyatlari uchun» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu yutuq uning oila a’zolari va ustozlarini birdek quvontirdi.

Yosh qahramonimiz kelajakda mohir tergovchi bo‘lish istagida. Buning uchun kishiga o‘tkir zehn, topqirlik, mahorat va mantiqiy fikrlash qobiliyati kerak bo‘ladi, deb hisoblaydi.

*Surxondaryo viloyati.*



## LITSEYNING IQTIDOR SOHIBALARI

**IIV Xorazm akademik litseyida o‘zining bilimi, iqtidori, intilishi bilan yuqori natijalarga erishayotgan o‘quvchi qizlardan biri 2-bosqich o‘quvchisi Shohista Yuldoshboyevadir.**

Shohista 2022-yilda yoshlar o‘rtasida sportning qo‘l jangi bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalarda mamlakat va qit’a chempionligini qo‘lga kiritdi. O‘tgan yili esa sportning ushbu turi bo‘yicha jahon chempioni, degan sharafli nomga muyassar bo‘ldi.




Litseyning iqtidorli o‘quvchilaridan yana biri Gulshoda Ermetova o‘tgan yili Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘tkazilgan sportning bel olish va uchkurash turlari bo‘yicha O‘zbekiston chempionatida birinchi o‘rinni egalladi. Uning orzusi jahon chempioni bo‘lib, yurtimiz bayrog‘ini yanada yuksaklarga ko‘tarishdir.

Bilim dargohida nafaqat sport, balki fanlar bo‘yicha ham yuqori natijalarga erishayotgan o‘quvchi qizlar talaygina. 1-bosqich o‘quvchisi Anaxon Baxtiyorova va 2-bosqich o‘quvchisi Marjona Qo‘ziboyeva chet tillarni bilish darajasi bo‘yicha B2 sertifikatini qo‘lga kiritgan. Yana bir o‘quvchi Aziza Salimova esa 2023-yil 29-noyabrda Urganch shahrida bo‘lib o‘tgan fan olimpiadasining viloyat bosqichida rus tili fanidan faxrli 3-o‘rinni egalladi.

Shu kunlarda lavhamiz qahramonlari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkaziladigan nufuzli sport musobaqalari va fan olimpiadalariga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishmoqda.

*Xorazm viloyati.*



## ONAM

Hech narsaga qilmayman da’vo,
Hasad emas, qilganim havas.
Xohlamayman boylik, mol-dunyo,
Men onamni sog‘lom ko‘rsam bas.

Mening uchun fido qilgan jon,
Mehr bergan munis, mehribon,
Qalbimdagi eng ulug‘ inson,
Men onamni sog‘lom ko‘rsam bas.

Yuz yoshlarga kirsin iloyim,
Xursand bo‘lib yursin har doim,
Uzoq qilgin umrin xudoyim,
Men onamni sog‘lom ko‘rsam bas.

**Oygul IBROHIMOVA,
IIV Farg‘ona akademik litseyi
1-bosqich o‘quvchisi.**

## O‘ZBEGIMNING QIZLARI

Tovlanib to‘lin oydek,
Yondiradi yuzlari.
Uzun sochlari soydek,
O‘zbegimning qizlari.

Hech kishining yuziga,
Tik boqmaydi ko‘zlari.
Oy qiyosdir o‘ziga,
O‘zbegimning qizlari.

Hur, qutlug‘ har qadami,
Gulga to‘lar izlari.
Ortda arab sanami,
O‘zbegimning qizlari.

Ham muloyim xushchaqchaq,
Boldek totli so‘zlari.
Behuda o‘tkazmas vaqt,
O‘zbegimning qizlari.

Mehnatdan sira tolmas,
Tinmas yoz, qish, kuzlari.
Zamondan ortda qolmas,
O‘zbegimning qizlari.

Hamma qilardi havas,
Yarashar har nozlari.
Oltin, durlarga qiyos,
O‘zbegimning qizlari.

Chiroyiga lol, hayron,
Dunyoning yulduzlari.
Tabiatning in’omi,
O‘zbegimning qizlari.

Barchaga oyna, o‘rnak,
Farishtadir o‘zlari.
Oilaga tayanch, tirgak,
O‘zbegimning qizlari.

**Oltinoy O‘KTAMJONOVA,
IIV Andijon viloyati akademik
litseyi bitiruvchisi.**

MULOHAZA

# YOSHLAR TARBIYASI BILAN O‘YNASHMANG!




**Kino san’atining ixlosmandlari ko‘p. Ayniqsa, yurtga muhabbat, yorga sadoqat yoki tarixiy mavzudagi filmlarni ko‘pchilik o‘zgacha zavq bilan tomosha qiladi. Ammo hamma filmlar haqida shunday deya olamizmi?**

Xalqimiz ko‘pincha bir dasturxon atrofida televizor tomosha qiladi. Biroq so‘nggi yillarda tayyorlangan kinolarimizning aksariyatini oila davrasida ko‘rib bo‘lmaydi. Negaki, milliy kino deb taqdim etilayotgan bunday «asarlar»da otaning uzoq yillardan beri ko‘rmagani uchun tanimasdan o‘z qizini, akaning o‘z singlisini yoqtirib qolishi, hatto qaynog‘a bilan kelin yoki qaynuka bilan kelinoyining ishqiy munosabatlari aks etayotganini qanday baholash mumkin? Yoxud soch-soqoliga qirov ingan aktyor yoki salkam oltmishni qarshilayotgan aktrisalarning erkakshoda qiliqlariga, beo‘xshov noz-karashmalariga nima deysiz? Balki, bu ularning kasbi, shuning ortidan non topadi, deyarsiz. To‘g‘ri. Lekin bir narsa aniqki, yosh avlod axloqini buzish, oilalarda parokandalikni keltirib chiqarishga hech kimning haqqi yo‘q.

Bugun kinofilmlar, seriallar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi videolavhalar sabab qaynota-qaynonasining xizmatini qilish burchi emasligini uqtirayotgan kelinlar, erini behurmat qilayotgan ayollar, do‘stining jufti haloliga ko‘z tikayotgan erkaklarni faqat ekranlardagina ko‘rmayotganimiz g‘oyat achinarlidir. Ular siz bilan bir mahallada istiqomat qilyapti, ko‘cha-ko‘yda ularga ko‘zimiz tushadi. Yana bir eng yomon tomoni shuki, ana shunday kino «mahsulotlar» ko‘plab yosh oilalarning buzilib, ajralishlar soni ortib borishiga «xizmat» qilayotir. Bunday filmlarga «Nomus», «Yig‘lagan qizlar» singari seriallarni misol tariqasida keltirish mumkin...

Unutmaslik kerakki, televideniyening, ayniqsa, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos. Shu ma’noda, odob-axloq qoidalariga zid bo‘lmagan, aksincha, yosh avlodni ilm-ma’rifatga, vatanparvarlikka, halollikka undovchi kino va seriallarga ehtiyojimiz bugun har qachongidan-da ortib borayotgani bor gap.

Xulosa o‘rnida, mo‘may daromad va shon-shuhrat ilinjida behayo, ma’naviyatimizga zid kino asarlar ishlab chiqarayotgan hamda uni xalqqa yetkazishga oshiqayotgan mutasaddilarga takror bo‘lsa ham iltimos qilib aytamizki: yoshlar tarbiyasi bilan o‘ynashmang! Ular orasida sizning ham qizingiz, o‘g‘lingiz yoki nevaralaringiz bor...

**Sherzod ABDUSAMADOV,**
**o‘z muxbirimiz.**

YARMI HAZIL, YARMI CHIN

# AGAR MEN TO‘Y QILSAM...



**Yaqinda fermer tanishim dabdabali to‘y qildi, tumonat odam keldi, o‘ziyam. Ichkarida musiqa shovqinidan boshim og‘rib tashqariga chiqib, to‘yxona qarshisidagi o‘rindiqlardan biriga cho‘kdim. Biroz o‘tib, hamqishlog‘im yonimga kelib u ham shovqinga chidolmaganligini aytdi. Shu sabab bo‘ldi-yu, to‘ylardan gap ochildi.**

Jumladan, buncha xarajat qilmasdan to‘y-marakalarni ixchamroq qilish zarurligi, pandemiya payti 30 kishi chaqirilganda ham to‘ylar o‘tganligi, aksincha, chiqim kamayganligi haqida so‘zlay boshladik. Shuningdek, xonandayu raqqosalarni chaqirmaslik, ular o‘rnini musiqa uskunasi bemalol egallay olishi, baribir «otarchilar» fonogrammadan foydalanishlariga e’tibor qaratdik.

To‘g‘ri-da, ikki quda kelishib, to‘yni bir joyda bir marotaba u tomondan 50, bu tomondan 50 kishi chaqirib o‘tkazilsa nimasi yomon. Yaqin odaming to‘y qilsa, bir necha kun ovora bo‘lishing kerak, bekorchi bo‘lsang, yursang bo‘lar, bu borada ishlilarga qiyin. Ilgarilari to‘yni o‘tkazishni dam olish kunlariga belgilashardi, hozir to‘yxona bo‘sh bo‘ladigan kuni to‘y o‘tadi, haftaning boshimi, o‘rtasimi, farqi yo‘q.

O‘zimizcha to‘ydan oldin va keyin uyushtiriladigan non sindirish, maslahat, sabzi to‘g‘rar, chaqirdi, xizmat oshi, mato tarqatish, patnis kabi urf va tadbirlarni yo‘qotishga orzulandik. Ana shu bo‘lmag‘urliklarga sarflanajak pullarga kelin-kuyov uchun foydali buyum va jihozlar olinsa, zap ish bo‘lishini iddao qildik. Hamsuhbatimning to‘ylarda umuman aroq bermaslik kerakligi, bu bilan to‘y egasi boshqalarning ichganligi gunohini ham o‘z bo‘yniga olayotgani to‘g‘risidagi fikrlari ayniqsa yoqdi. Qisqasi, ortiqcha tashvish va bosh og‘riqsiz to‘y qilishga ko‘p va xo‘p orzulandik.

Tanishim tez orada o‘zi ham to‘y qilishini aytgunicha suhbatimiz silliq kechayotgandi. Aniqrog‘i, men: «To‘yni ixchamgina, kamxarajat o‘tkazsangiz kerak?», deya so‘radim. U bo‘lsa buning iloji yo‘qligini bildirib, fikrini izohlay boshladi. Binobarin, o‘zi elning to‘y-marakasida yeb-ichib yurgani, to‘yga aytmasa, qarindosh-urug‘, jo‘ra-yo‘ldoshlari, hamkasblari va qishloq ahlining o‘pka-ginasi tagida mayib bo‘lishi, qolaversa, turmush o‘rtog‘i: «Mening bolam yetimmi, boshqalardan nima kamim bor», degancha yeb ado qilishini, bunga quda tomon ham rozi bo‘lmasligini bildirdi. Keyin qo‘shib qo‘ydi: «O‘zing to‘y qilganda ko‘ramiz».

Xullas, mavzuni yopib, to‘yxonaga kirdik. Ichkarida «gapga chechan» boshlovchi raqqosalar qurshovida qolgan kelin va kuyovning onalarini ko‘klarga ko‘tarib maqtardi. So‘zi oxirida hammadan ular sharafiga qarsak chalishni so‘radi. Qiziq, yig‘ilishmidi bu, hadeb qarsak chal, deydi. To‘y qilsam, mana shu boshlovchini chaqirmayman, lekin san’atkorlarning zo‘rini olib kelaman...

**Alijon ABDUSATTOROV,**
**o‘z muxbirimiz.**

SALOMATLIK SABOQLARI

# MING DARDGA DAVO – PIYOZ

## uning po‘stini ham tashlab yubormang



**Bir dona o‘rtacha kattalikdagi piyoz quyidagilarni o‘zida mujassam qiladi:**

- 44 kaloriya;
- 13 gramm uglevod;
- 1 gramm oqsil;
- 1 gramm yog‘;
- 1 gramm to‘yingan yog‘;
- 2,5 gramm kletchatka;
- 6 gramm shakar;
- 216 milligramm kaliy;
- 15 milligramm magniy;
- 11 milligramm C vitamini;
- 0,178 milligramm B6 vitamini.

### Qanday foydasi bor?

C, B6 vitamini, foliy kislotasi va kaliyga boy bo‘lgan piyoz, shuningdek, kletchatkaning ham koni. Asosiysi, tuz va ta’m kuchaytirgichlarsiz ham taomning mazali bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

### Yurakni himoya qiladi

Tabiiy birikmalar manbasi bo‘lgan piyoz yallig‘lanish jarayoni, qolaversa, qondagi xolesterin miqdorini ham kamaytiradi. Ayniqsa, qizil piyoz tarkibida mo‘l bo‘lgan polifenol kversetin qon bosimining pasayishiga yordam beradi. Shuningdek, infarkt yoki insultni boshidan kechirgan insonlarga har kuni pishirilgan piyozni iste’mol qilish tavsiya etiladi.



### Hazm jarayonini yaxshilaydi

Piyoz tarkibidagi kletchatkalar foydali ichak bakteriyalar – probiotiklarning o‘sishiga hissa qo‘shadi. Ilmiy tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra, piyoz tarkibidagi kletchatkalar boshqa sabzavotdagilarga qaraganda ichak bakteriyalari balansini yaxshiroq qo‘llab-quvvatlaydi.



### Saratonning kelib chiqish xavfini kamaytirishga yordam beradi

Piyoz tarkibidagi antioksidantlar nafaqat yallig‘lanishga qarshi, balki saratonning kelib chiqish xavfini kamaytirish xususiyatiga ham ega. Ilmiy tadqiqotlarda piyoz iste’mol qilish oshqozon va yo‘g‘on ichaklar saratonining xavfini kamaytirishi aytilgan.

### Immun tizimini mustahkamlaydi

Piyozdagi fitokimyoviy modda immunitetni mustahkamlab, virus va bakteriyalardan himoya qiluvchi oqsillarning ajralishini jadallashtiradi.

### Bilib qo‘ygan yaxshi

Asal bilan yangi piyoz sharbati bronxit va pnevmoniyani davolash, yo‘tal xurujlarini bartaraf etish uchun ishlatiladi.

Pishirilgan piyoz kompresslari quloq og‘rig‘iga yordam beradi va oyoqlarga surtilganda, tana haroratini pasaytiradi.

### Pishgan piyozning shifobaxsh xususiyatlari:

* pishgan piyoz yaralar va yotoq yaralarni davolashda yordam beradi. Buning uchun piyoz qobig‘ida pishiriladi va og‘riqli joylarga surtiladi;



* yiringli yaralarni davolashda ham pishirilgan piyozdan foydalanish mumkin. Issiq piyoz kompressini har kuni 20 daqiqadan muammoli joyga qo‘yib, ushlab turish lozim. Yiringli yaralar juda tez yo‘qoladi;

*pishgan piyozni qon ivishida muammolari bo‘lgan har bir kishi ko‘proq iste’mol qilishi kerak.

### Piyoz po‘stlog‘ini tashlab yuborishga shoshilmang!

Piyoz po‘stining qaynatmalari ekspektoran (balg‘am ko‘chiruvchi), laksatif (ich suruvchi), peshob haydovchi, safro haydovchi, spazmolitik, vitaminlar, mikroblarga qarshi, tomirlarni toraytiruvchi sifatida ishlatiladi.



### Angina shishishi qiynaganda:

Piyoz qobig‘ining ustiga qaynoq suv quyib, iligach filtrlanadi. Va tomoqni chayish uchun foydalaniladi.

Burun oqishida – allergik va shamollaganda:

Qaynoq suvga 4 osh qoshiq to‘g‘ralgan piyoz po‘sti solinib, 3–5 daqiqa davomida bug‘ida nafas olish kerak.

### Yo‘tal tutsa...

2 osh qoshiq piyoz po‘stiga 2 stakan suv solib, 15 daqiqa davomida qaynatiladi, suziladi. Kuniga 3 marta 1/4 stakan iliq holda ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi.

### Buyrak va peshob yo‘llari shamollaganda:

3 choy qoshiq maydalangan piyoz po‘stining ustiga 2 stakan suv solib qaynatiladi va 30 daqiqa davomida tindiriladi.

O‘tkir sistitda kuniga 2 marta 50 ml dan 3–5 kun davomida, surunkali sistitda 10 kun davomida kuniga 3–4 marta 2 osh qoshiqdan ichiladi.



**Internet materiallari asosida Gulnoza TURG‘UNBOYEVA tayyorladi.**

**Tavsiyalarga amal qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashing.**

# Вождение весной:
# ОСОБЕННОСТИ И МЕРЫ БЕЗОПАСНОСТИ

**Опытные водители знают, что весной на дорогах опасностей не становится меньше. Во всяком случае, в первое время после отступления холодов. Виной тому не только автомобиль и природа, но и человеческий фактор.**



# Не считайте весеннюю дорогу летней: если днем солнце и тепло, это не значит, что ночью и утром не может быть заморозков.

# Отсутствие на асфальте льда и снега не означает, что проезжая часть стала идеальной: как раз весной на ней обнаруживается много других сюрпризов.

# Не торопитесь сразу переходить на летний стиль езды, даже опытному водителю необходимо время, чтобы освежить навыки в сменившихся условиях.

# Помните о том, что весной значительно увеличивается количество транспорта на дороге и большая часть появившихся водителей, отнюдь не блещет мастерством.

## «ПОДСНЕЖНИКИ»

Дорожная обстановка в весенний период имеет свои особенности: вместе с солнцем на дорогах появляется много так называемых «водителей-подснежников». Это люди, которые по каким-либо причинам не ездили в холодное время года: дачники, любители шашлыков и отдыха на природе, пенсионеры со своими особенностями вождения, мотоциклисты и скутеристы. Нужно добавить сюда велосипедистов, которые за неимением велодорожек ездят по проезжей части, далеко не всегда соблюдая ПДД.



Все эти категории водителей не только уплотняют трафик, но и насыщают его нештатными ситуациями: движением без световых сигналов, неожиданными перестроениями и обгонами, превышением скорости или неоправданно медленным движением, остановками в неположенных местах. Поэтому даже опытный водитель автомобиля должен быть особо внимательным к соседям по потоку.

Особая тема – дети и дорога. Причем весной их становится намного больше – не всегда дисциплинированных и часто без родителей. В настоящее время опасность усугубляется доступностью разных видов компактного электротранспорта — гиробордов, гироскутеров, электросамокатов. Управляемые детьми, они повсеместно появляются во дворах и все чаще на проезжей части.

## ДОРОЖНЫЕ СЮРПРИЗЫ

Полно сюрпризов таит и само дорожное полотно. Весенняя погода бывает переменчивой, и при +10 ˚С или +12 ˚С дневной температуры ночью возможны заморозки. Это значит, что по утрам в затененных местах или на путепроводах (мостах) вполне реально попасть на обледеневший участок. Даже если он будет небольшим, протяженностью всего несколько метров, этого может оказаться достаточно, чтобы водитель потерял контроль и автомобиль попал в аварию. Опасность особенно актуальна для тех, кто ездит ночью или ранним утром.



Также после холодов катастрофически глубокие ямы появляются там, где их меньше всего ожидаешь, – на скоростных трассах, в том числе недавно отстроенных. Покрышка, разрубленная при высокой скорости на грубой выбоине, – угроза устроить аварию. Поэтому нужно ездить не спеша, чтобы располагать временем на объезд или торможение перед опасной ямой.

# MUNAJJIMLAR BASHORATI
## (11–martdan 17–martgacha)



**Qo‘y.** Shu kunlarda ish yuzasidan bir qancha takliflar kelib tushishi mumkin. Farzandlaringiz hayotidagi muhim hodisalarni o‘tkazib yubormaslik uchun ular bilan ishonchli munosabat o‘rnatishga harakat qiling. Moliyaviy masalalarda diqqat-e’tiborli bo‘lish tavsiya etiladi.



**Buzoq.** Siz uchun har qanday muammo va nizolarni hal qilishda mazkur hafta kunlari ayni muddaodir. Bu davrda ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko‘p joylarda bo‘lishingiz kutilmoqda.



**Egizaklar.** Bu hafta davomida juda ko‘p ishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Shu sababdan sizga yaxshigina hordiq zarur bo‘ladi. Hamkasblaringiz tomonidan aytilgan ba’zi noo‘rin gaplarga ahamiyat qaratmang. Imkon qadar ular bilan nizoga bormaslikka harakat qiling.



**Qisqichbaqa.** Bu davrda rejalashtirilgan muhim ish va uchrashuvlar muvaffaqiyatli kechadi. Davr bilan hamnafas bo‘lib, mavjud bilimlarni yangilari bilan uyg‘unlashtiring. Xizmatdoshlar uchun umumiy manfaatlarni ko‘zlovchi insonga aylaning.



**Arslon.** Ayni dam hayotingizda unumli va jadal rivojlanish jarayoni ketmoqda. Eski qarashlarni o‘tmishda qoldiring. Tanqidni xolislik bilan qabul qiling, yo‘l-yo‘lakay xatolarni tuzatib ketishga o‘rganing. Yaqinlaringiz bilan kelishib qaror qabul qilishga odatlaning.



**Parizod.** Bu davrda, ayniqsa, hafta boshida horg‘inlik va charchoq holati sizga hamrohlik qilishi mumkin. O‘zingizni o‘zingiz ruhlantiring, tasalli bering yoki bu masalada do‘stlaringizga murojaat qiling. Yaqin va qadrdon insonlar bu davrda ruhiy ko‘mak berib, sizni qo‘llab-quvvatlashadi.



**Tarozi.** Bu hafta davomida kuch-g‘ayrat, imkoniyat va salomatlik sizning foydangizga xizmat qiladi. Bundan unumli va maqsadli foydalanish o‘zingizga bog‘liq. Mazkur hafta oilaviy masalalarni hamda anchadan beri o‘z yechimini kutayotgan muammolarni hal etish uchun qulay davrdir.



**Chayon.** Atrofingizdagi ba’zi odamlar bilan munosabatda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Katta ahamiyatga ega bo‘lgan jiddiy loyihalarga hozircha qo‘l urmaganingiz ma’qul. Ammo uy ishlari va tashvishlarini hal etishni aslo ortga surmang.



**O‘qotar.** Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ko‘tarinki bo‘lib, qo‘l urgan barcha ishlaringiz baroridan kelishi kutilmoqda. Bu hafta ham ishda, ham oilada o‘zingizni ko‘rsatish uchun yaxshi palla. Biroq bu jarayonda imkon boricha bosiqlik bilan ish yuritish lozim. Yaqinlaringizdan ko‘mak va mehringizni zinhor ayamang.



**Tog‘ echkisi.** Barcha reja va istiqboldagi ishlarni amalga oshirish uchun omadli davr. Ushbu kunlar davomida hayotingizda moliyaviy, muhabbat va do‘stlik masalalarida keskin o‘zgarishlar kutilmoqda. Biroq ba’zi qarash va o‘y-fikrlarni qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi.



**Qovg‘a.** Bu hafta siz uchun omadli keladi. Bundan unumli foydalangan holda ish joyida va oila orasidagi munosabatlarni yaxshilash va mustahkamlashga harakat qiling. Yaqinlaringizga ko‘proq mehr ko‘rsating, farzandlar tarbiyasiga, ularning hayotida yuzaga kelgan muammolarga e’tiborli bo‘ling.



**Baliq.** Kelgusi hafta atrofdagi odamlar orasidagi obro‘ va nufuzingizni oshirish, ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun maqbuldir. Avvalo, tashqi ko‘rinish va salomatlikka jiddiy e’tibor qarating. Jismonan og‘ir vazifalardan chetlashib, ta’bni xira qiluvchi va ko‘ngilni og‘rituvchi barcha holatlardan imkon qadar uzoqlashing.

# DUGONALAR BORMISIZ, OMONMISIZ...



Ushbu mumtoz qo'shiqni xirgoyi qilmagan inson bo'lmasa kerak. Bu satrlar atoqli davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov qalamiga mansub. U ushbu she'rni o'z onasining xotirasiga bag'ishlagan.



Sharof Rashidovning asarlari o'zbek san'atining noyob durdonalarida yashaydi. Masalan, «Yor-yor» filmida «Dugonalar» qo'shig'i, «Chinor ostidagi duel» kinoasarida esa «Sado» guruhining «Yor kelur» qo'shig'i beriladi. Sharof Rashidov she'rlariga bastalangan ushbu qo'shiqlar haqiqiy san'at darajasida kuylangan. Mazmunan boyligi, ko'tarinkiligi bilan o'z-o'zidan dilbar qo'shiqlarga jo bo'lgan satrlar bugun ham xalq tilidan tushmaydi.

**Dugonalar bormisiz, omonmisiz?**
**Jam bo'lishib, ochilib gulzormisiz, jon,**
**Ochilib gulzormisiz, jon-ey.**
**Jam bo'lishib, ochilib gulzormisiz, jon,**
**Ochilib gulzormisiz, jon-ey,**
**bormisiz, yor-ey, jon?**

**Hech qanday kuch bizni xazon etolmas,**
**Bo'ron, Horud murodiga yetolmas.**
**Jam bo'lishib, ochilib gulzormisiz, jon,**
**Ochilib gulzormisiz, jon-ey,**
**bormisiz, yor-ey, jon?**

**Obod bo'lur bahorimiz, bog'imiz,**
**Jam bo'lishib, ochilib gulzormisiz, jon,**
**Ochilib gulzormisiz, jon-ey.**
**Jam bo'lishib, ochilib gulzormisiz, jon,**
**Ochilib gulzormisiz, jon-ey,**
**bormisiz, yor-ey, jon?**

**Qora kuchlar gulistondan quvilsin,**
**Gullar bargi shabnam bilan yuvilsin.**
**Jam bo'lishib, ochilib gulzormisiz, jon,**
**Ochilib gulzormisiz, jon-ey,**
**bormisiz, yor-ey, jon?**

Taniqli bastakor Sulaymon Yudakov tomonidan adibning «Kashmir qo'shig'i» qissasidagi «Dugonalar» she'riga bastalagan qo'shiqni O'zbekiston xalq artisti Saodat Qobulova maromiga yetkazib ijro etgan, bugungi kunda opa-singillarimiz uchun mehr ramziga aylangan. Vokal-musiqa janri uslubida yaratilgan qo'shiq hamon o'z badiiy qimmatini yo'qotmay, ijrochilar tomonidan kuylanib kelinmoqda.





Postda
На посту

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Sherzod ABDUSAMADOV
Abror POYONOV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.
Shaxsiy h/v
4700108602628770311011790001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 1A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Buyurtma № 776.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50524 nusxada chop etildi.
**Obuna raqamlari:**
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.